



SOGʻLIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**TIBBIY REABILITATSIYA
VA FIZIOTERAPIYA MUOLAJALARINI
BAJARUVCHILAR**



“Tibbiy rehabilitatsiya va fizioterapiya muolajalarini bajaruvchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Tibbiy rehabilitatsiya va fizioterapiya muolajalarini bajaruvchilar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0058



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart sohadagi texnik xizmat ko'rsatish faoliyatining fizioterapevt yordamchisi, ergoterapiya texnigi, gidroterapiya texnigi, fizioterapiya texnigi, elektroterapevt va massajchi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Mazkur standart ushbu mutaxassislarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, mahorat va mas'uliyat darajasini belgilaydi hamda ularning malakasini baholash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

balneoterapiya – tabiiy yoki sun‘iy tayyorlangan mineral suvlar yordamida kasalliklarni davolash va profilaktika qilish usuli;

elektroterapiya – elektr tokining har xil turlari (doimiy, impulsli, yuqori chastotali), elektr va magnit maydonlari yordamida davolash usuli;

ergoterapiya – bemorning yo‘qotilgan kundalik hayot ko‘nikmalarini (o‘ziga xizmat qilish, mehnat faoliyati) maxsus mashqlar va moslashtirish orqali qayta tiklashga qaratilgan rehabilitatsiya yo‘nalishi;

fizioterapiya – tabiiy (suv, loy, issiqlik) va sun‘iy (elektr, yorug‘lik, lazer) fizik omillar yordamida kasalliklarni davolash, rehabilitatsiya qilish va oldini olish sohasi;

gidroterapiya – chuchuk suvni davolash va profilaktika maqsadida tashqi tomondan (vannalar, dushlar, artishlar ko‘rinishida) qo‘llash;

massaj – Tana yoki biror a‘zoga davo yoki gigiyenik maqsadda maxsus usulda mexanik ta‘sir etish (silash, uqalash, iylash, qoqib qo‘yish kabi usullar bilan amalga oshiriladi);

tibbiy rehabilitatsiya – kasallik, jarohat yoki nogironlik oqibatida buzilgan organizm funksiyalarini tiklash hamda bemorning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgust “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” gi 265-I-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgust “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik to‘g‘risida” gi O‘RQ-393-sonli Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-aprel “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-215-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabr “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida” gi nizomni tasdiqlash haqidagi 696-sonli qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

LFK – Davolash badantariyasi;
DDT – Diadinamik toklar;
UHF – Ultra yuqori chastotali maydon;
UV – Ultrabinafsha nurlanish;
TENS – Teri orqali elektr nerv stimulyatsiyasi;
Gs – Gerts.

I. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Tibbiy reabilitatsiya va fizioterapiya muolajalarini bajaruvchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Bemorlarga shifokor ko'rsatmasi asosida fizik omillar yordamida davolash va profilaktika muolajalarini o'tkazish, davolovchi massaj qilish hamda yo'qotilgan jismoniy va maishiy funksiyalarni tiklashda texnik yordam ko'rsatish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	R seksiyasi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; 86 - Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat; 86.9 - Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat; 86.95 - Fizioterapiya tadbirlari; 86.95.0 - Fizioterapiya tadbirlari.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu kasbiy standart sog'liqni saqlash tizimining reabilitatsiya va fizioterapiya bo'linmalarida faoliyat yurituvchi o'rta va kichik tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan. Hujjat bemorlarga apparatli fizioterapiya, gidroterapiya, massaj va ergoterapiya muolajalarini bajarish bo'yicha malaka talablarini, bilim va ko'nikmalarni belgilaydi. Standart mutaxassislarni tayyorlash, baholash va ishga qabul qilish uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32550002 Ergoterapiya texnigi	3
		32550003 Fizioterapevt yordamchisi	3
		32550005 Gidroterapiya texnigi	4
		32550001 Elektroterapevt	5
		32550004 Fizioterapiya texnigi	5
		32550006 Massajchi	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	32550002 - Ergoterapiya texnigi	A1.3	Ergoterapiya mashg'ulotlari uchun muhit, moslamalar va jihozlarni texnik ta'minlash	A1.01.3	Mashg'ulot xonasini va kerakli inventarlarni ergoterapevtning kunlik rejasiga asosan tayyorlash
				A1.02.3	Bemorning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan adaptiv vositalarni sozlash va tozalash
				A1.03.3	Mayda motorikani rivojlantirish uchun mo'ljallangan jihozlarning butligi va sanitariya holatini ta'minlash
				A1.04.3	Nogironlik aravachalarining g'ildiraklari, tormoz tizimi va o'tirgichlarini texnik ko'rikdan o'tkazish hamda bemor o'lchamiga moslab sozlash
				A1.05.3	Sarflov materiallari zaxirasini nazorat qilish va o'z vaqtida to'ldirish
		A2.3	Bemorning kundalik hayot ko'nikmalarini tiklash mashg'ulotlarida ishtirok etish	A2.01.3	Ergoterapevt nazorati ostida bemorga o'z-o'ziga xizmat qilish mashqlarini bajarishda jismoniy yordam berish
				A2.02.3	Ovqatlanish mashg'ulotlarida xavfsiz ovqatlanish texnikasini o'rgatishda ko'maklashish
				A2.03.3	Qo'l va barmoqlar harakatchan-ligini tiklash mashqlarini bajarish
				A2.04.3	Kognitiv mashqlarni o'tkazishda qatnashish
		A3.3	Bemor xavfsizligini ta'minlash va mashg'ulot natijalarini qayd etish	A3.01.3	Mashg'ulot davomida bemorning umumiy ahvolini vizual kuzatish
				A3.02.3	Mashg'ulot natijalarini kuzatuv varaqasiga qayd etish
				A3.03.3	Yordamchi yurish vositalaridan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish
				A3.04.3	Ishlatilgan vositalarni dezinfeksiya qilish va yig'ishtirish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
2	32550003 - Fizioterapevt yordamchisi	B1.3	Muolaja xonalari va tibbiy jihzlarni sanitariya- gigiyena talablari asosida ishga tayyorlash	B1.01.3	Fizioterapiya apparatlari, kushetkalar va ishchi yuzalarni chang va kirdan tozalash hamda dezinfeksiya qilish
				B1.02.3	Tibbiy choyshablarni, elektrod qistirmalarini va sochiqlarni almashtirish hamda tozalikka rioya qilish
				B1.03.3	Muolaja uchun zarur bo'lgan sarflov materiallarini tayyorlab qo'yish
		B2.3	Bemorlarni kutib olish, ro'yxatga olish va muolaja jarayoniga tayyorlash	B2.01.3	Bemorlarni xushmuomalalik bilan kutib olish, navbatni tartibga solish va shifokor yo'llanmasini tekshirish
				B2.02.3	Bemorga muolaja oldidan kiyimini almashtirishga va metall buyumlarni yechishga ko'maklashish
				B2.03.3	Bemorni tibbiy kushetkaga yoki maxsus o'rindiqqaxavfsiz va qulay joylashtirish
		B3.3	Fizioterapiya va reabilitatsiya muolajalarini o'tkazishda mutaxassisga bevosita ko'maklashish	B3.01.3	Apparatli muolajalar vaqtida elektrodni yoki datchiklarni bemor tanasiga fiksatsiya qilishda mutaxassisga yordam berish
				B3.02.3	Muolaja vaqti tugaganda apparatni o'chirish, elektrodni yechish va terini tozalash
				B3.03.3	Ergoterapiya va LFK mashg'ulotlarida bemorning muvozanat saqlashiga va mashqlarni bajarishiga jismoniy yordam berish
		B4.3	Bemorlar xavfsizligini ta'minlash va oddiy parvarish ishlarini bajarish	B4.01.3	Harakatlanishi cheklangan va nogironligi bor bemorlarni tibbiy aravacha yoki zambilda bo'lim ichida tashish
				B4.02.3	Muolaja paytida bemorning umumiy ahvolini kuzatish va noqulaylik sezilganda darhol mutaxassisni chaqirish
				B4.03.3	Xonada texnik xavfsizlik qoidalarini nazorat qilish
3	32550005 - Gidroterapiya texnigi	D1.4	Gidroterapiya va balneologik muolajalarga tayyorgarlik ko'rish hamda eritmalarni tayyorlash	D1.01.4	Shifokor tayinlov varaqasiga asosan vannalar uchun kerakli harorat rejimini termometr yordamida aniq sozlash
				D1.02.4	Balneologik vannalar uchun maxsus kontsentratlar va tuzlarni texnologik xaritaga muvofiq eritish
				D1.03.4	Gazli vannalarni tayyorlashda gaz ballonlari va kompressorlar bosimini nazorat qilish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		D2.4	Suv bilan davolashning maxsus texnik muolajalarini (vannalar va dushlar) bajarish	D1.04.4	Gidroterapiya uskunalarining sozligini va yerga ulanishini ish boshlashdan oldin tekshirish
				D2.01.4	Umumiy va mahalliy vannalarni o'tkazishda bemorning suvga tushishini va vaqtini nazorat qilish
				D2.02.4	Sharko dushi va Shotland dushini o'tkazishda suv oqimi bosimi va masofani texnik to'g'ri boshqarish
				D2.03.4	Aylanma va yomg'irli dushlarda suv harorati va bosimining barqarorligini ta'minlash
				D2.04.4	Suv osti dush-massajini bajarishda massaj qoidalariga rioya qilgan holda, suv oqimini yo'naltirish
				D2.05.4	Kontrast vannalar va dushlarda issiq va sovuq suv almashinuvi sxemasiga aniq rioya qilish
4	32550001 - Elektroterapevt	E1.5	Elektr xavfsizligi va apparatlar sozligini tekshirish	E1.01.5	Fizioterapiya apparatlarining korpusi yerga ulanganligini va simlar izolyatsiyasi butunligini vizual tekshirish
				E1.02.5	Muolaja vaqtida bemorning tok o'tkazuvchi qismlarga va metall buyumlarga tegib ketishining oldini olish
				E1.03.5	Apparatlarni ishlatishdan oldin ularning sozligini test rejimida sinab ko'rish
		E2.5	O'zgarmas va past chastotali toklar yordamida davolash	E2.01.5	Galvanizatsiya muolajasini o'tkazishda elektrodnlarni joylashtirish va tok kuchini dozalash
				E2.02.5	Dori elektroforezi muolajasini bajarish va dori moddalarini qutbga mos ravishda kiritish
				E2.03.5	Muolajadan so'ng bemor terisining butunligini tekshirish va elektrod qistirmalarini sterilizatsiya qilish
		E3.5	Impulsli va o'rta chastotali toklar yordamida davolash	E3.01.5	Falajlangan mushaklarni elektrostimulyatsiya qilish va impuls rejimlarini tanlash
				E3.02.5	Diadinamik va Amplipuls terapiya muolajalarida tok modulyatsiyasini sozlash
				E3.03.5	Elektrouyqu muolajasini o'tkazish va tinchlantiruvchi chastotani belgilash

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
5	32550004 - Fizioterapiya texnigi	E4.5	Yuqori va o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydonlar bilan davolash	E3.04.5	Interoreseptiv va flyuktuatsiya toklari yordamida og'riqsizlantirish muolajalarini bajarish
				E4.01.5	Yuqori chastotali terapiya va induktotermiya muolajalarida rezonansni sozlash
				E4.02.5	Darsonvalizatsiya muolajasini bajarish va uchqunli razryad kuchini boshqarish
				E4.03.5	Mikrotu'lqinli va detsimetrli terapiyada nurlatgichni joylashtirish va issiqlik dozasini nazorat qilish
		F1.5	Bemorni muolajaga tayyorlash va dastlabki baholash	F1.01.5	Bemorning holatini baholash va shifokor ko'rsatmasi asosida muolajaga tayyorlash
				F1.02.5	Terining biologik va vizual holatini tekshirish
				F1.03.5	Bemorni muolaja joyiga to'g'ri pozitsiyada yotqizish va qulaylikni ta'minlash
		F2.5	Fototerapiya muolajalarini bajarish	F2.01.5	Lazeroterapiya: nurlatgichni biologik faol nuqtalarga yoki patologik o'choqqa yo'naltirish
				F2.02.5	Ultrabinafsha muolajada terining sezuvchanligini aniqlash
				F2.03.5	Infraqizil nurlanishda masofani issiqlik hissiga qarab sozlash
				F2.04.5	Nurlanish davomida bemor va xodimning ko'zini himoyalash
		F3.5	Ultratovush va fonoforez muolajalarini bajarish	F3.01.5	Ultratovush apparatini tayyorlash va kontakt moddalarni tanlash
F3.02.5	Ultratovush kallagini tananing kerakli sohasi bo'ylab tekis harakatlantirish				
F3.03.5	Fonoforezda dori moddasini to'g'ri yuborish texnikasini qo'llash				
F4.5	Magnit maydonlari bilan davolash	F4.01.5	Magnitoterapiya induktorlarini qutblanish qoidalari asosida joylashtirish		
		F4.02.5	Past chastotali magnit maydonining kuchlanishi va ta'sir vaqtini sozlash		
		F4.03.5	Induktor holatini muolaja davomida nazorat qilish		

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari			
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi		
		F5.5	Issiqlik bilan davolash usullarini qo'llash	F5.01.5	Bemorga issiqlik muolajasidan oldin xavfsizlikni tushuntirish		
				F5.02.5	Parafin va ozokeritni qizdirish, sterillash va haroratini tekshirish		
				F5.03.5	Issiqlik applikatsiyalarini kuyishga yo'l qo'ymasdan bajarish		
		F6.5	Aerozol va ingalatsion terapiyani bajarish	F6.01.5	Nebulayzer yoki ingalyator apparatini tayyorlash		
				F6.02.5	Dori vositalarini to'g'ri dozalash va eritmalarni tayyorlash		
				F6.03.5	Aerozol muolajasini bajarish va apparatni tozalash		
		F7.5	Qo'shimcha fizioterapevtik muolajalarni bajarish	F7.01.5	Elektroforez apparatini tayyorlash va elektrodلarni to'g'ri joylashtirish		
				F7.02.5	TENS terapiya parametrlari va kontakt zonasini aniqlash		
				F7.03.5	Vibratsion terapiyani bemor holatiga mos tarzda qo'llash		
		F8.5	Tibbiy apparatlarni sozlash, gigiyenik ishlov berish va texnik tayyorlash	F8.01.5	Qurilmani ishlashga tayyorlash va sozlash		
				F8.02.5	Muolajadan oldin va keyin apparatni tozalash va dezinfeksiyalash		
		F9.5	Tibbiy hujjatlar bilan ishlash va muolajalarni qayd qilish	F9.01.5	Shifokor topshirig'iga asosan muolajani aniqlashtirish		
				F9.02.5	Muolaja jurnali yoki elektron kartochkada natijani qayd etish		
				F9.03.5	Muolaja samaradorligini shifokor bilan birgalikda baholash		
		F10.5	Fizioterapiya xonasi ishini tashkillashtirish va materiallar bilan ishlash	F10.01.5	Xonani muolajaga tayyorlash, gigiyenik tartibni saqlash		
				F10.02.5	Asboblار va sarf materiallarini ro'yxatga olish va tayyorlash		
				F10.03.5	Dori vositalari va vositalarni yaroqlilik muddatini nazorat qilish		
		F11.5	Bemor bilan muloqot qilish va ma'lumot berish	F11.01.5	Bemorga muolajaning maqsadi va tartibini tushuntirish		
				F11.02.5	Rozilik olish va muolajani boshlashdan oldin ishonch hosil qilish		
		6	32550006 - Massajchi	G1.5	Klassik va gigiyenik massaj turlarini bajarish	G1.01.5	Massaj oldidan qo'llarni antiseptik tozalash, isitish va bemor terisiga massaj moyi yoki talk surtish
						G1.02.5	Klassik massajning to'rtta asosiy usulini ketma-ketlikda bajarish
G1.03.5	Umumiy gigiyenik massajni tananing barcha qismlarida limfa oqimi yo'nalishi bo'ylab o'tkazish						

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		G2.5	Terapevtik massajni bajarish	G2.01.5	Shifokor tashxisi va yo'llanmasiga asosan massaj qilinadigan sohani aniqlash
				G2.02.5	Gipertonus mushaklarni bo'shashtiruvchi yoki bo'shashgan mushaklarni kuchaytiruvchi usullarni qo'llash
				G2.03.5	Tayanch-harakat tizimi kasalliklarida umurtqa pog'onasi atrofidagi mushaklarni chuqur uqalash
				G2.04.5	Insult va jarohlardan keyingi rehabilitatsiyada kontrakturalarni ochish uchun passiv harakatlar bilan massaj qilish
		G3.5	Maxsus massaj turlarini qo'llash	G3.01.5	Sportchilarda mashg'ulot oldidan va keyin sport massajini bajarish
				G3.02.5	Segmentar-reflektor massaj texnikasini qo'llagan holda umurtqaning tegishli segmentlariga ta'sir ko'rsatish
				G3.03.5	Biologik faol nuqtalarni topish va barmoq uchi bilan bosib ta'sir qilish
				G3.04.5	Go'daklar va kichik yoshdagi bolalarda yoshga xos yumshoq massaj texnikasini bajarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Ergoterapiya texnigi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32550	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ushbu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan avvalgi ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Yuksak darajadagi sabr-toqat, xushmuomalalik va empatiya talab etiladi. Bemorni harakatlantirish uchun yetarli jismoniy kuch va chidamlilik, jamoada ishlash ko'nikmasi hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus professional ta'lim; umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Bolalar tibbiy rehabilitologi
	6	Kattalar tibbiy rehabilitologi
	6	Reabilitatsiya terapevti
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 - Ergoterapiya mashg'ulotlari uchun muhit, moslamalar va jihozlarni texnik ta'minlash	A1.01.3 - Mashg'ulot xonasini va kerakli inventarlarni ergoterapevtning kunlik rejasiga asosan tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ergoterapevtning kunlik rejasini o'rganib, mashg'ulot turiga mos xonani tanlash va jihozlash
		2. Mashg'ulot stoli va stullarini bemorning bo'yiga moslab to'g'ri joylashtirish
		3. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xonadagi ortiqcha buyumlarni va poldagi to'siqlarni olib tashlash
		4. Xonani shamollatish va yoritish darajasini me'yorga keltirish
		Ko'nikmalar:
		Mashg'ulot zonasini tez va tartibli tashkil qilish
		Jihozlarning texnik sozligini vizual tekshirish
		Xavfsiz muhit yarata olish
		Bilimlar:
		Reabilitatsiya xonalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablari

		Ergoterapiya mashg'ulotlarida ishlatiladigan asosiy jihozlar va ularning vazifalari
		Ergonomika asoslari
A1.02.3 - Bemorning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan adaptiv vositalarni sozlash va tozalash		Mehnat harakatlari:
		1. Bemor uchun rejalashtirilgan adaptiv vositalarni tayyorlash
		2. Vositalarning tozaligini va butunligini vizual tekshirish va antiseptik bilan ishlov berish
		3. Moslamalarning mahkamlagichlari va tutqichlarini bemorning qo'l o'lchamiga moslab sozlash
		4. Mashg'ulotdan so'ng ishlatilgan vositalarni maxsus eritmada yuvish, quritish va joyiga tartibli olib qo'yish
		5. Nosoz yoki singan vositalarni ajratib olish va bu haqda mutaxassisga xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Adaptiv vositalarni buzmasdan, mexanizmlarini to'g'ri sozlash
		Dezinfeksiyalovchi eritmalarini to'g'ri tayyorlash va sirtlarni tozalash
		Vositalardagi ko'zga tashlanmaydigan mayda nosozliklarni aniqlash
		Yordamchi vositalarni bemorga qulay qilib uzatish
		Ishlatilgan jihozlarni gigiyenik talablarga mos ravishda quritish va saqlash
		Texnik nosozliklar haqida o'z vaqtida axborot berish
		Bilimlar:
		Kundalik hayot faoliyati uchun mo'ljallangan yordamchi vositalarning turlari va vazifalari
		Tibbiy buyumlar va reabilitatsiya vositalarini dezinfeksiya qilish qoidalari
		Shaxsiy gigiyena vositalari bilan ishlashda infeksiya nazorati talablari
		Turli materiallardan tayyorlangan vositalarni tozalash xususiyatlari
		Adaptiv vositalarni saqlash va inventarizatsiya qilish tartibi
		Bemor xavfsizligi va jarohatlanishning oldini olish qoidalari
	Mehnat harakatlari:	
	1. Mayda detallar to'plamining to'liqligini mashg'ulotdan oldin va keyin tekshirish	
	2. Jihozlar orasidan singan, qirrasi o'tkirlashgan yoki yaroqsiz holga kelgan qismlarni ajratib olish	
	3. Plastik va yog'och o'yinchoqlarni tasdiqlangan sanitariya qoidalariga muvofiq sovuqli eritmada yuvish va quritish	

A1.03.3- Mayda motorikani rivojlantiruvchi jihozlarning butligi va sanitariya holatini ta'minlash	4. Loy, plastilin va bo'yoq kabi bir martalik vositalarning yaroqlilik muddatini hamda qotib qolmaganligini nazorat qilish
	5. Jihozlarni turlari va o'lchamlariga qarab maxsus qutilarga yoki javonlarga tartibli joylashtirish
	Ko'nikmalar:
	Ko'plab mayda detallarni tez va aniq saralash hamda joylashtirish
	Jihozlardagi ko'zga tashlanmaydigan nuqsonlarni vizual aniqlash
	Elektr elementli o'yinchoqlarni suv tekizmasdan tozalash
	Jihozlarni yo'qolishining oldini olish uchun inventarizatsiya o'tkazish
	Xavfli deb topilgan vositalarni foydalanishdan o'z vaqtida chiqarish
	Ish joyini keyingi mashg'ulotga toza holatda tayyorlash
	Bilimlar:
	Reabilitatsiyada ishlatiladigan mayda motorika vositalarining turlari va vazifalari
	O'yinchoqlar va mayda detallar xavfsizligi bo'yicha gigiyenik talablar
	Turli materiallarga ishlov berish va dezinfeksiya qilish usullari
	Mayda buyumlar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar
	Inventarlarni hisobga olish va saqlash qoidalari
	Yelim, bo'yoq va loy kabi moddalarning kimyoviy xususiyatlari hamda saqlash sharoitlari
	A1.04.3- Nogironlik aravachalarining texnik holatini tekshirish va bemor o'lchamiga moslab sozlash
1. Aravachaning g'ildiraklari damini, yurish qismining ravonligini va tormoz tizimining ishlashini texnik ko'rikdan o'tkazish	
2. Bemorning boldir uzunligiga qarab oyoq qo'yish joyi balandligini kalit yordamida o'zgartirish va mahkamlash	
3. O'tirgich, suyanchiq va tirsak qo'ygichlarning butunligini hamda tozaligini tekshirish	
4. Aravachaning yig'iluvchi mexanizmlarini yog'langanligi va oson ishlashini nazorat qilish	
5. Murakkab nosozliklar aniqlanganda aravachani foydalanishdan olish, belgilash va ta'mirlash ustasiga xabar berish	
Ko'nikmalar:	
Aravacha tormozlarining ishonchliligini amalda tekshirish	
Oddiy chilangarlik asboblari yordamida murvatlarni qotirish va bo'shatish	
Oyoq qo'yish joylarini bemorga qulay qilib, simmetrik tarzda sozlash	

		G'ildiraklarni nasos yordamida damlash va bosimni tekshirish
		Aravachani to'g'ri yig'ish va yoyish
		O'tirgich va suyanchiq qoplamalarini yechish hamda tozalash
		Mexanik g'ijirlash yoki qiyshayish kabi nuqsonlarni aniqlash
		Bilimlar:
		Mexanik va elektr nogironlik aravachalarining tuzilishi, asosiy qismlari va ishlash prinsipi
		Aravachadan foydalanishda texnik xavfsizlik qoidalari va ekspluatatsiya muddatlari
		Texnik xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan oddiy chilangarlik asboblari turlari
		Aravacha qismlarini tozalash va dezinfeksiya qilish qoidalari
		Bosilish yaralarini oldini olishda aravacha yostig'ining ahamiyati
		Nosoz aravachaning bemor salomatligiga yetkazishi mumkin bo'lgan zararlari
	A1.05.3- Sarflov materiallari zaxirasini nazorat qilish va to'ldirish	Mehnat harakatlari:
		1. Art-terapiya va mehnat mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan materiallar qoldig'ini muntazam sanab borish
		2. Mashg'ulot rejasi asosida yetishmayotgan yoki tugayotgan materiallar ro'yxatini tuzish va ergoterapevtga taqdim etish
		3. Ombordan yoki ta'minotchi shaxsdan materiallarni qabul qilib olish va ularning sifati hamda butligini tekshirish
		4. Materiallarni saqlash sharoitlariga rioya qilgan holda javonlarga tartibli joylashtirish
		5. Yelim, bo'yoq va boshqa kimyoviy vositalarning yaroqlilik muddatini nazorat qilish va muddati o'tganlarini ajratish
		Ko'nikmalar:
		Ombordagi mavjud materiallarni tez va aniq sanash hamda hisob-kitob qilish
		Kelgusi mashg'ulotlar uchun materiallar sarfini to'g'ri prognoz qilish
Qabul qilingan mahsulotlarning qadog'i butligi va sifati vizual baholash		
Materiallarni turlari, ranglari va o'lchamlari bo'yicha ajratib joylashtirish		
Yaroqlilik muddati o'tgan, qurib qolgan yoki sifatsiz materiallarni o'z vaqtida aniqlash		
Saqlash joyidagi sanitariya holatini va xavfsizlikni ta'minlash		

		<p>Kimyoviy vositalar idishlarini zich yopish va xavfsiz saqlashni nazorat qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Ergoterapiya va ijodiy mashg'ulotlarda ishlatiladigan sarflov materiallarining turlari hamda xususiyatlari</p> <p>Moddiy boyliklarni saqlash, hisobga olish va inventarizatsiya qilish qoidalari</p> <p>Turli xil materiallarni saqlashga qo'yiladigan harorat va namlik talablari</p> <p>Yaroqlilik muddati va mahsulot yorliqlarini o'qish standartlari</p> <p>Tez yonuvchan va o'tkir hidli moddalar bilan ishlashda yong'in xavfsizligi qoidalari</p> <p>Chiqindilarni saralash va yaroqsiz materiallarni utilizatsiya qilish tartibi</p> <p>Buyurtma berish va qabul qilish hujjatlari bilan ishlash asoslari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Mashg'ulot xonalari va jihozlarning tozaligi hamda sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Bemor xavfsizligini ta'minlash, singan, xavfli jihozlarni o'z vaqtida aniqlash va foydalanishdan chiqarish</p> <p>3. Sarflov materiallari va inventarlarning hisobini to'g'ri yuritish hamda ularga moddiy javobgarlik</p> <p>4. Ergoterapevt tomonidan tasdiqlangan kunlik reja asosida ish joyini va kerakli vositalarni tayyorlashda mas'uliyat</p> <p>5. Ish jarayonida aniqlangan kamchiliklar va texnik nosozliklar haqida rahbariga o'z vaqtida xabar berishda mas'uliyat</p>
A2.3- Bemorning kundalik hayot ko'nikmalarini tiklash mashg'ulotlarida ishtirok etish	A2.01.3- Ergoterapevt nazorati ostida bemorga o'z-o'ziga xizmat qilish mashqlarini bajarishda jismoniy yordam berish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Ergoterapevt ko'rsatmasiga binoan bemorga kiyimini kiyish va yechish jarayonida amaliy yordam berish</p> <p>2. Shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanishda bemorning qo'lidan ushlab yoki harakatni yo'naltirib ko'maklashish</p> <p>3. Bemor mustaqil bajara olmaydigan harakatlarni yordamchi vositalar yordamida bajarishni mashq qildirish</p> <p>4. Mashg'ulot davomida bemorni so'z bilan rag'batlantirish va harakatlar ketma-ketligini eslatib turish</p> <p>5. Bemorning charchash darajasini kuzatish va zarur bo'lganda dam olish uchun tanaffus qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Bemorga og'riq yetkazmasdan va uni kamsitmasdan jismoniy yordam ko'rsatish</p>

		Murakkab harakatlarni oddiy bo'laklarga bo'lib, sekin va tushunarli namoyish qilish
		"Qo'l ichida qo'l" texnikasini qo'llagan holda bemorning harakatini boshqarish
		Bemorning muvozanatini yo'qotish holatlarini oldindan sezish va ushlab qolish
		Sabr-toqat va xushmuomalalik bilan muloqot qilish
		Bilimlar:
		O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarining turlari va bajarilish ketma-ketligi
		Harakati cheklangan yoki falajlangan bemorlarni kiyintirish qoidalari
		Bemor bilan jismoniy yaqinlikda ishlash etikasi va shaxsiy daxlsizlikni hurmat qilish
		Gigiyenik mashg'ulotlar vaqtida sanitariya talablari
		Yordamchi vositalarni kiyinish va yuvinish jarayonida qo'llash usullari
	Bemorning psixologik holati va motivatsiyani oshirish usullari	
	A2.02.3- Ovqatlanish mashg'ulotlarida xavfsiz ovqatlanish texnikasini o'rgatishda ko'maklashish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning qo'lidan ushlab, qoshiqni og'ziga olib borish harakatini birgalikda bajarish
		2. Suyuqlik ichishda maxsus idishlardan foydalanishga yordam berish
		3. Yutish xavfsizligini ta'minlash uchun bemorning gavdasini va boshini to'g'ri holatda ushlab turishini nazorat qilish
		4. Ovqatlanish vaqtida to'kilib ketgan ovqatlarni darhol tozalash va bemorning gigiyenasini saqlash
		5. Ergoterapevt ko'rsatmasiga binoan bemorga berilayotgan ovqatning konsistensiyasini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Bemorga shoshilmasdan ovqatlanishda yordam berish
		Moslashtirilgan idishlardan to'g'ri foydalanishni namoyish qilish
Bemorning yutish harakatini vizual kuzatish va tiqilib qolish xavfini erta sezish		
Ovqatlanish jarayonida tozalik va ozodalikni saqlash		
Bemorning mustaqil ovqatlanishga bo'lgan harakatini psixologik qo'llab-quvvatlash		
Tiqilib qolish holati yuz berganda darhol mutaxassisni chaqirish yoki yordam ko'rsatish		
Bilimlar:		
Yutish qiyinchiligining tashqi belgilari		
Xavfsiz ovqatlantirish qoidalari		
Ovqatlanish uchun moslashtirilgan idishlar va vositalarning turlari hamda vazifalari		

		Ovqatlanish vaqtida bemorning tanasini to'g'ri joylashtirish va aspiratsiya xavfi
		Sanitariya-gigiyena va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha asosiy talablar
		Bemorning dietasi va ruxsat etilgan ovqat turlari haqida tushuncha
	A2.03.3- Qo'l va barmoqlar harakatchanligini tiklash mashqlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemor bilan birga barmoq va qo'l kafti mashqlarini bajarish
		2. Konstruktor, mozaika yoki mayda buyumlarni yig'ish va saralash jarayonida amaliy yordam berish
		3. Mashq takrorlari sonini sanash va belgilangan me'yorni nazorat qilish
		4. Bemorning noto'g'ri bajarilgan qo'l harakatlarini yumshoqlik bilan to'g'rilash
		5. Mashq bajarish tezligini bemorning imkoniyatiga moslashtirish
		Ko'nikmalar:
		Mashq harakatlarini aniq va tushunarli namoyish qilib berish
		Bemorning diqqatini mashg'ulot jarayoniga to'liq jalb qilish
		Mashq bajarish tempini boshqarish va tartibga solish
		Mayda buyumlarni epcillik bilan saralash va joylashtirish
		Bemorning kichik yutuqlarini ham o'z vaqtida rag'batlantirish
		Bilimlar:
		Mayda motorika funksiyasini rivojlantirish bosqichlari
		Qo'l va barmoqlar uchun mo'ljallangan mashqlar turlari
		Mashg'ulot paytida bemorda yuzaga keladigan charchoq belgilari
		Mayda detallar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari
	Umumiy foydalanishdagi buyumlarga qo'yiladigan gigiyenik talablar	
	A2.04.3- Kognitiv mashqlarni o'tkazishda qatnashish	Mehnat harakatlari:
		1. Xotira va diqqatni jamlash uchun mo'ljallangan o'yinlarni tashkil qilish
		2. Bemorga topshiriq qoidalarini va ketma-ketligini tushuntirish
		3. Mashq bajarish jarayonini kuzatish va yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'irlash
		4. Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtga rioya qilishni nazorat qilish
		5. Bemorning qiziqishini va faolligini saqlab turish
		Ko'nikmalar:
	Mashg'ulot uchun kerakli ko'rgazmali qurollarni tanlash	

		Ko'rsatmalarni sodda va tushunarli tilda bayon qilish
		Bemorning diqqatini mashg'ulotga jalb qilish
		Bemor holatiga qarab topshiriqni osonlashtirish yoki qiyinlashtirish
		Bemor bilan ishonchli va samimiy muloqot o'rnatish
		Bilimlar:
		Kognitiv funksiyalarni tiklashga qaratilgan mashqlar turlari
		Muloqot psixologiyasi va pedagogika asoslari
		Aqliy zo'riqish va charchoqning tashqi belgilari
		Didaktik materiallardan foydalanish qoidalari
		Katta yoshdagi bemorlar bilan ishlash xususiyatlari
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Mashg'ulotlar vaqtida bemorning jismoniy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik
		2. Ergoterapevt tomonidan belgilangan mashqlar rejasi va texnikasiga qat'iy rioya qilish
		3. Bemor bilan yaqin muloqotda shaxsiy daxlsizlik va etika qoidalari buzmaslik
		4. Ovqatlantirish jarayonida tiqilib qolish xavfining oldini olish va gigiyenaga amal qilish
		5. Bemorning holatida salbiy o'zgarishlar sezilganda mashqni to'xtatish va mutaxassisga xabar berish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
		6. O'z vakolati doirasidan tashqari bo'lgan tibbiy maslahatlar bermaslik va davolash rejasini o'zboshimchalik bilan o'zgartirmaslik
A3.3- Bemor xavfsizligini ta'minlash va mashg'ulot natijalarini qayd etish	A3.01.3- Mashg'ulot davomida bemorning umumiy ahvolini vizual kuzatish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning rangi o'zgarishi, hansirash yoki charchash belgilarini kuzatib borish
		2. Xavf sezilganda mashqni zudlik bilan to'xtatish va ergoterapevti chaqirish
		3. Bemorga suv uzatish yoki dam olish uchun sharoit yaratish
		4. Mashg'ulot vaqtida xonadagi harorat va havo aylanishini nazorat qilish
		5. Bemorning shikoyatlarini tinglash va mutaxassisga yetkazish
		Ko'nikmalar:
		Bemor holatini vizual baholash
		Favqulodda vaziyatlarda tezkor reaksiya ko'rsatish
		Bemorga psixologik dalda berish
		Atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash
		Aniq va qisqa axborot berish
		Bilimlar:
		Jismoniy va aqliy zo'riqishning tashqi belgilari
		Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari
		Mashg'ulotni to'xtatish uchun asos bo'luvchi mezonlar

		Vital ko'rsatkichlarning o'zgarish belgilari	
		Bemor bilan muloqot qilish etikasi	
	A3.02.3- Mashg'ulot natijalarini kuzatuv varaqa-siga qayd etish	Mehnat harakatlari:	
		1. Bemor bajargan mashqlar soni va sarflagan vaqtini aniq hisoblash	
		2. Olingan natijalarni tasdiqlangan kuzatuv varaqa-siga yozish	
		3. Bemorning mashqni bajarishdagi mustaqillik darajasini belgilash	
		4. Kuzatuv davomida aniqlangan o'zgarishlarni qisqa izoh shaklida qayd etish	
		5. To'ldirilgan hisobot shaklini mashg'ulot so'ngida ergoterapevtga topshirish	
		Ko'nikmalar:	
		Raqamli ma'lumotlarni xatosiz va o'qishli yozish	
		Jarayonni kuzatish bilan bir vaqtda hisob-kitob qilish	
		Bemorning harakatlarini baholash mezonlarini to'g'ri qo'llash	
		Hisobotlarni o'z vaqtida tayyorlash	
		Yozuvlarda grammatik va texnik xatolarga yo'l qo'yimaslik	
		Bilimlar:	
		Tibbiy hujjatlarni yuritish va to'ldirish qoidalari	
		Ergoterapiyada qo'llaniladigan o'lchov birliklari	
		Kuzatuv varaqalari va jurnallarning tuzilishi	
		Ma'lumotlarni qayd etishda xolislik va haqqoniylik tamoyillari	
		Shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi	
		A3.03.3- Yordamchi yurish vositalaridan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
			1. Bemorga tayoq, xodunok yoki qo'ltiq-tayoqni to'g'ri ushlab va joylashtirishni eslatib turish
	2. Harakatlanish vaqtida bemorning yonida yoki orqasida yurib, yiqilishdan sug'urta qilish		
	3. Yurish vositalarining balandligi bemor bo'yiga mosligini tekshirish		
	4. Vositalarning sirpanishga qarshi rezina uchlarini borligini nazorat qilish		
	5. Bemorning charchash alomatlari sezilganda harakatni to'xtatish		
	Ko'nikmalar:		
	Bemorning yurish holatini vizual baholash		
	Yiqilish xavfini oldindan sezish va oldini olish		
	Yurish vositalarining texnik sozligini tekshirish		
	Bemorga aniq va tushunarli ko'rsatmalar berish		
	Harakatlanish jarayonida xavfsiz masofani saqlash		
	Bilimlar:		
	Yordamchi yurish vositalarining turlari va vazifalari		

		Tayoq va xodunokdan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari	
		Harakatlanish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari	
		Vositalarni bemor bo'yiga moslash standartlari	
		Yiqilish holatlarida birinchi yordam ko'rsatish tartibi	
	A3.04.3- Ishlatilgan vositalarni dezinfeksiya qilish va yig'ishtirish	Mehnat harakatlari:	1. Mashg'ulotdan so'ng barcha jihozlar va o'yinchoqlarni yig'ishtirib olish
		2. Ishchi yuzalarni va mayda detallarni tasdiqlangan dezinfektsiyalovchi eritma bilan artish	
		3. Hosil bo'lgan chiqindilarni tegishli tibbiy chiqindi qutilariga tashlash	
		4. Tozalangan vositalarni quritish va maxsus javonlarga tartibli joylashtirish	
		5. Xonani shamollatish va keyingi mashg'ulotga tayyor holatga keltirish	
		Ko'nikmalar:	Tozalash ishlarini sifatli va tezkor bajarish
		Dezinfeksiya vositalaridan tejamkor va to'g'ri foydalanish	
		Chiqindilarni xavfsiz saralash	
		Ish joyida tartib va ozodalikni saqlash	
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish	
		Bilimlar:	Tibbiyot muassasalarida sanitariya-gigiyena va dezinfeksiya qoidalari
		Dezinfektsiyalovchi eritmalarini tayyorlash va ularning yaroqlilik muddati	
		Tibbiy chiqindilarni sinflarga ajratish va utilizatsiya qilish tartibi	
		Kimyoviy tozalash vositalari bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi	
		Reabilitatsiya jihozlarini saqlash shartlari	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Mashg'ulot natijalarini va kuzatuv ma'lumotlarini tibbiy hujjatlarga haqqoniy hamda xatosiz kiritish uchun shaxsiy javobgarlik
			2. Bemorning harakatlanishi va mashq bajarishi davomida uning jismoniy xavfsizligini to'liq ta'minlash
	3. Ishlatilgan jihozlar va xonaning sanitariya holatini belgilangan me'yorlar darajasida saqlash		
	4. Bemorning ahvoli og'irlashganda yoki kutilmagan vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish va mutaxassisni chaqirish bo'yicha mustaqil harakat qilish		
	5. Yordamchi yurish vositalarining texnik sozligini nazorat qilish		
	6. Bemorga oid ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash		

<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>	<p>Ergoterapiya zali, balandligi va qiyalik burchagi sozlanadigan maxsus stollar va stullar, simulyatsiya zonalari, vertikalizator va ko'zgular, maxsus qalinlashtirilgan yoki egilgan tutqichli oshxona anjomlari, o'z-o'ziga xizmat qilish vositalari, sirpanishga qarshi maxsus gilamchalar va idish ushlagichlar, mexanik va elektr nogironlik aravachalari, yurishga ko'maklashuvchi vositalar, maxsus belbog' va sirpanish taxtalari, qo'l va barmoqlar harakatini rivojlantiruvchi stendlar, konstruktorlar va mozaikalar, terapevtik loy va plastilin, qo'l espanderlari, tibbiy qo'lqoplar, niqoblar, dezinfeksiyalovchi eritmalar, kuzatuv jurnallari yoki planshet.</p>
---	--

Kasbning nomi:	Fizioterapevt yordamchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32550	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Jismoniy chidamlilik, tartib-intizom, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish, xushmuomalalik, bemorlarga g'amxo'rlik qilish va jamoada ishlash qobiliyati.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim; umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Fizioterapiya texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3- Muolaja xonalari va tibbiy jihozlarni sanitariya-gigiyena talablari asosida ishga tayyorlash	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Ish kuni boshlanishidan oldin barcha ishchi yuzalarni nam usulda tozalash	
	2. Fizioterapiya apparatlarining korpusi, shtativlari va simlarini changdan tozalash	
	3. Bemor terisi bilan bevosita muloqotda bo'ladigan qismlarni tasdiqlangan dezinfeksiyalovchi eritma bilan artish	
	4. Xonani shamollatish va pol qismining tozaligini ta'minlash	
	5. Tozalash ishlarini maxsus belgilangan inventar va himoya vositalarida bajarish	
	Ko'nikmalar:	
	Dezinfeksiya eritmalarini yo'riqnoma asosida to'g'ri tayyorlash	
	Turli sirtlarni shikastlamasdan tozalash	
	Elektr apparatlarini suv kiritmasdan xavfsiz tozalash texnikasini qo'llash	
Tozalash ishlarini belgilangan grafik asosida tez va sifatli bajarish		

		Ishlatilgan tozalash vositalarini zararsizlantirish va saqlash
		Bilimlar:
		Tibbiyot muassasalarida sanitariya-gigiyena rejimi qoidalari
		Dezinfeksiyalovchi vositalarning turlari, tayyorlash usullari va yaroqlilik muddati
		Elektr tibbiy jihozlarini tozalashda xavfsizlik texnikasi
		Tozalash inventarlarini markirovka qilish va saqlash tartibi
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari
	B1.02.3- Tibbiy choyshablarni, elektrod prokladkalarini va sochiqlarni almashtirish hamda tozalikka rioya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Har bir bemordan so'ng tibbiy kushetkadagi bir martalik choyshabni almashtirish
		2. Elektroforez va galvanizatsiya uchun ishlatilgan gidrofil prokladkalarini yig'ib olish va yuvishga tayyorlash
		3. Toza choyshab va sochiqlar zaxirasini kunlik ehtiyojga qarab tayyorlab qo'yish
		4. Ifloslangan kir yuvish buyumlarini maxsus qoplarga solish va kirxona xizmatiga topshirish
		5. Prokladkalarini qaynatish yoki sterillash jarayonida ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Kushetka choyshabini tez va tekis to'shash
		Elektrod qistirmalarining butunligini va tozaligini vizual tekshirish
		Ifloslangan kirlarni tozalari bilan aralashtirmasdan saralash
		Kirxona hujjatlarini yuritishda yordam berish
		Ish jarayonida o'zining himoya kiyimini o'z vaqtida almashtirish
		Bilimlar:
		Tibbiyot muassasalarida choyshab almashtirish rejimi
		Gidrofil qistirmalarni tozalash, qaynatish va saqlash qoidalari
		Infeksiya tarqalishining oldini olishda shaxsiy gigiyena va tozalikning ahamiyati
	Kirlarni saqlash hamda tashish bo'yicha sanitariya talablari	
	B1.03.3- Muolaja uchun zarur bo'lgan sarflov materiallarini tayyorlab qo'yish	Mehnat harakatlari:
		1. Fizioterapiya muolajalari uchun kerakli kontakt gellar va dori eritmalarini ish stoliga tayyorlab qo'yish
		2. Parafin va ozokeritni maxsus qozonda eritish va haroratini nazorat qilishda texnik yordam berish
		3. Dori vositalarining yaroqlilik muddati va tashqi ko'rinishini vizual tekshirish
		4. Tugayotgan sarflov materiallari zaxirasini to'ldirish uchun buyurtma berish

		<p>5. Ishlatilgan parafin yoki ozokeritni qayta ishlash uchun yig'ish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Dori eritmalarini flakonlardan ehtiyotkorlik bilan quyish</p> <p>Parafin isitgich uskunasi to'g'ri yoqish va harorat rejimini kuzatish</p> <p>Qizigan moddalar bilan ishlashda kuyishning oldini olish</p> <p>Materiallarning sifati buzilganligini aniqlash</p> <p>Ish joyini kerakli vositalar bilan uzluksiz ta'minlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Fizioterapiyada ishlatiladigan asosiy dori vositalari va o'tkazuvchi moddalarning saqlash sharoitlari</p> <p>Parafin va ozokeritning fizik xususiyatlari va ular bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi</p> <p>Dori vositalarining yaroqlilik muddatini aniqlash va markirovka qilish qoidalari</p> <p>Yonuvchan va uchuvchan moddalar bilan ishlashda yong'in xavfsizligi</p> <p>Sarflov materiallarini tejash va hisobini yuritish asoslari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Muolaja xonalari, mebellar va tibbiy jihozlarning sanitariya holati belgilangan me'yorlarga mos bo'lishi uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Elektr jihozlarini tozalash va tayyorlash jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish</p> <p>3. Sarflov materiallaridan oqilona va tejamkor foydalanish</p> <p>4. Ish jarayonida aniqlangan texnik nosozliklar, singan jihozlar yoki tugagan materiallar haqida o'z vaqtida katta hamshiraga yoki mutaxassisga xabar berish</p> <p>5. O'z vakolati doirasidagi kundalik tayyorgarlik ishlarini tasdiqlangan grafik asosida mustaqil bajarish</p> <p>6. Sanitariya-gigiyena qoidalarini buzish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar uchun javobgarlik</p>
B2.3- Bemorlarni kutib olish, ro'yxatga olish va muolaja jarayoniga tayyorlash	B2.01.3- Bemorlarni xushmuomalalik bilan kutib olish, navbatni tartibga solish va shifokor yo'llanmasini tekshirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Bemorlar bilan salomlashish, o'zini tanishtirish va ularning shaxsini hamda shifokor yo'llanmasi mavjudligini tekshirish</p> <p>2. Yo'llanmadagi muolaja turi, sohasi va vaqti to'g'ri ko'rsatilganligini ko'zdan kechirish</p> <p>3. Navbatni tartibga solish va bemorlarni chaqirish</p> <p>4. Bemorlarni bo'shagan kabinalariga yoki muolaja stollariga yo'naltirish va kuzatib qo'yish</p> <p>5. Kutish zalidagi tartib va osoyishtalikni saqlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Turli toifadagi bemorlar bilan xushmuomala va sabrli muloqot qilish</p> <p>Tibbiy hujjatlardagi yozuvlarni to'g'ri o'qish va tushunish</p> <p>Bemorlar oqimini to'g'ri taqsimlash</p>

		Yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni bosiqlik bilan hal etish
		Bemorga aniq va qisqa ko'rsatmalar berish
		Bilimlar:
		Tibbiyot xodimining kasbiy etikasi va deontologiya qoidalari
		Bemorlarni qabul qilish va ro'yxatga olish tartibi
		Fizioterapiya yo'llanmasi va muolaja varaqasini o'qish qoidalari
		Navbatni boshqarish va nizoli vaziyatlarni oldini olish usullari
		Bemor huquqlari va imtiyozli toifadagi shaxslarga xizmat ko'rsatish tartibi
	B2.02.3- Bemorga muolaja oldidan kiyimini almashtirishga va metall buyumlarni yechishga ko'maklashish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorga muolaja o'tkaziladigan tana sohasini kiyimdan ozod qilish kerakligini tushuntirish
		2. Harakati cheklangan, keksa yoki yosh bolali bemorlarga kiyinish va yechinishda jismoniy yordam ko'rsatish
		3. Fizioterapiya xavfsizligi uchun bemordagi barcha metall buyumlarni yechib qo'yishni nazorat qilish
		4. Bemorning kiyimlari va shaxsiy buyumlarini maxsus ajratilgan joyga tartibli joylashtirish
		5. Zarurat bo'lganda bemorga muolaja vaqti uchun tibbiy xalat yoki choyshab berish
		Ko'nikmalar:
		Bemorga noqulaylik tug'dirmasdan kiyimini yechishga va kiyishga ko'maklashish
		Tanadagi metall buyumlarni vizual aniqlash va yechishni xushmuomalalik bilan talab qilish
		Bemorning maxfiyligini ta'minlash
		Bemorning kiyimlarini g'ijimlasmasdan joylashtirish
		Bilimlar:
		Elektr va magnit maydoni ta'sirida metall buyumlarning qizishi va kuyish xavfi haqida tushuncha
		Bemorning shaxsiy daxlsizligi va intim zonalarini hurmat qilish qoidalari
		Kiyinish va yechinishda yordam berish ergonomikasi
		Bemorlarning shaxsiy buyumlarini vaqtincha saqlash tartibi
		Tana sohalarining topografiyasi
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemorni tibbiy kushetkaga chiqishi va tushishida jismoniy yordam ko'rsatish
		2. Muolaja turiga qarab bemorni kerakli holatda joylashtirish

B2.03.3- Bemorni tibbiy kushetkaga yoki maxsus o'rindiqqa xavfsiz va qulay joylashtirish	3. Bemorning qulayligini ta'minlash va mushaklarni bo'shashtirish uchun tizza ostiga, boshga yoki belga maxsus yostiqchalar qo'yish
	4. Tananing muolaja qilinmaydigan qismlarini choyshab bilan yopish va bemorni issiq tutish
	5. Bemorning holati barqaror va xavfsiz ekanligini tekshirish
	Ko'nikmalar:
	Bemorni ehtiyotkorlik bilan ko'tarish yoki suyash
	Yostiq va valiklardan foydalanib, tananing og'riqsiz holatini topish
	Bemorni choyshab bilan o'rash texnikasini qo'llash
	Kexsa va harakati cheklangan bemorlarga kushetkaga chiqishda zinapoyani to'g'ri qo'yib berish
	Bemorning qulay joylashganligini so'rab bilish
	Bilimlar:
	Fizioterapiya muolajalarini o'tkazish uchun qulay fiziologik holatlar
	Bemorni yotqizish va turg'izishda xavfsizlik texnikasi qoidalari
	Bemor tanasini to'g'ri joylashtirish vositalaridan foydalanish tartibi
	Uzoq vaqt bir holatda yotish natijasida yuzaga keladigan noqulayliklar va ularning oldini olish
	Bemor maxfiyligini saqlash va etika qoidalari
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bemorlar bilan muloqot jarayonida tibbiy etika, deontologiya va xushmuomalalik qoidalariga rioya qilish uchun shaxsiy javobgarlik
	2. Muolaja oldidan bemor xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat
	3. Bemorlar oqimini tartibga solish va navbatni adolatli hamda nizosiz boshqarish
	4. Bemorning shaxsiy daxlsizligi va kiyimlarini saqlashda maxfiylikni ta'minlash
	5. Bemorlarni kutib olish, kiyim almashtirish va joylashtirish ishlarini tasdiqlangan ichki tartib asosida mustaqil tashkil etish
	6. Tushunmovchiliklar, bemorning noroziligi yoki nostandart vaziyatlarda o'z vaqtida katta hamshira yoki shifokorga xabar berish
	Mehnat harakatlari:
	1. Fizioterapiya texnigi ko'rsatmasiga binoan elektrodni yoki nurlatgichlarni bemorning kerakli sohasiga joylashtirishda ko'maklashish

B3.3- Fizioterapiya va reabilitatsiya muolajalarini o'tkazishda mutaxassisga bevosita ko'maklashish	B3.01.3- Apparatli muolajalar vaqtida elektrodni yoki datchiklarni bemor tanasiga fiksatsiya qilishda mutaxassisga yordam berish	2. Elektrodni rezina kamarlar, elastik bintlar yoki maxsus yukchalar yordamida tanaga qimirlamaydigan qilib mahkamlash
		3. Simlarning chalkashib ketmasligini va bemorga xalaqit bermasligini ta'minlash
		4. Kontakt muhiti yetarli ekanligini vizual kuzatish
		5. Bemorga muolaja vaqtida qimirlamaslik kerakligini tushuntirish
		Ko'nikmalar:
		Elastik bint va kamarlarni bemorni siqib qo'ymasdan mustahkam bog'lash
		Qum xaltachalarini elektrod ustiga to'g'ri joylashtirish
		Simlarni tartibli joylashtirish va ulash
		Mutaxassisning buyruqlarini tez va aniq bajarish
		Bemorga qulay holat yaratib berish
		Bilimlar:
		Elektrodni fiksatsiya qilish usullari va vositalari
		Elektrod qistirmalarining namlik darajasiga qo'yiladigan talablar
		Simlar va kontaktlarning butunligini tekshirish qoidalari
		Bemor tanasining anatomik sohalari
	Elektr xavfsizligi bo'yicha birlamchi tushunchalar	
	B3.02.3- Muolaja vaqti tugaganda apparatni o'chirish, elektrodni yechish va terini tozalash	Mehnat harakatlari:
		1. Muolaja vaqti tugaganligini bildiruvchi tovushli signalni kuzatib borish
		2. Mutaxassis ruxsati bilan yoki belgilangan tartibda apparatni o'chirish
		3. Elektrodni, nurlatgichlar va fiksatsiya kamarlarini bemor tanasidan ehtiyotkorlik bilan yechib olish
		4. Muolaja o'tkazilgan soha terisini qog'oz salfetka yoki sochiq yordamida kontakt gel, suv yoki dori qoldiqlaridan tozalash
		5. Terida kuchli qizarish, toshma yoki kuyish belgilari yo'qligini ko'zdan kechirish
		Ko'nikmalar:
		Apparatlarni to'g'ri ketma-ketlikda o'chirish
		Yopishqoq elektrodni yoki bintlarni bemorga og'riq bermasdan yechish
		Terini toza va quruq holatga keltirish
Teridagi o'zgarishlarni vizual aniqlash va xabar berish		
Bemorga o'rnidan turishda yordam berish		
Bilimlar:		
Fizioterapiya muolajalarini yakunlash tartibi		
Bemor terisini tozalash va gigiyena qoidalari		
Muolajadan keyingi terining normal va patologik reaksiyalari		
Elektr jihozlarini xavfsiz uzish qoidalari		
Ishlatilgan salfetkalarni utilizatsiya qilish tartibi		

	B3.03.3- Ergoterapiya va LFK mashg'ulot- larida bemorning muvozanat saqlashiga va mashqlarni bajarishiga jismoniy yordam berish	Mehnat harakatlari:
		1. Mutaxassis ko'rsatmasiga binoan bemorni tik turish, o'tirish yoki yurish vaqtida yiqilib ketmasligi uchun ushlab turish
		2. Mashq bajarish jarayonida bemorga kerakli sport inventarlarini uzatib turish va qaytarib olish
		3. Harakati cheklangan bemorning qo'l yoki oyog'ini ushlab, passiv harakatlarni bajarishda mutaxassisga ko'maklashish
		4. Mashg'ulot zalidagi to'siqlarni olib tashlash va bemorning erkin harakatlanishini ta'minlash
		5. Mashq tugagandan so'ng bemorni joyiga kuzatib qo'yish
		Ko'nikmalar:
		Bemorni kiyimidan emas, balki gavdasidan to'g'ri va mustahkam ushlab
		Mutaxassisning buyruqlariga tez va aniq rioya qilish
		Bemor bilan hamohang harakatlanish
		Yiqilish xavfini oldindan sezish va oldini olish
		Jismoniy kuchni to'g'ri taqsimlash
		Bilimlar:
		Jismoniy mashqlar bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalari
		Bemorni ushlab turish va sug'urta qilish usullari
	Reabilitatsiya inventarlarining nomlari va vazifalari	
	Bemorning muvozanat yo'qotish belgilari	
	Jismoniy zo'riqishda yordamchining o'zini himoya qilish qoidalari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Mutaxassis ko'rsatmalarini aniq, tezkor va so'zsiz bajarish uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Muolaja vaqtida bemorning holatini vizual kuzatib borish va noxush o'zgarishlar haqida darhol xabar berish
		3. Mashg'ulot yoki muolaja jarayonida bemorning yiqilib tushishi yoki jarohatlanishining oldini olish
		4. Muolaja tugaganda apparatlarni o'chirish, elektrodlarni yechish va terini tozalash ishlarini belgilangan tartib asosida mustaqil bajarish
		5. Elektr va mexanik jihozlar bilan ishlashda texnik xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish
		6. O'z vakolati doirasidan tashqari bo'lgan ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarmaslik

B4.3- Bemorlar xavfsizligini ta'minlash va oddiy parvarish ishlarini bajarish	B4.01.3- Harakatlanishi cheklangan va nogironligi bor bemorlarni tibbiy aravacha yoki zambilda bo'lim ichida tashish	Mehnat harakatlari:
		1. Tibbiy aravacha yoki zambilning texnik sozligini tashishdan oldin tekshirish
		2. Bemorni aravachaga o'tirishiga yoki zambilga yotishiga jismoniy yordam berish
		3. Harakatlanish vaqtida bemorning qo'l-oyoqlari osilib qolmasligini va xavfsizlik kamari taqilganligini nazorat qilish
		4. Bemorni bo'lim yo'laklari, lift va panduslar orqali silkitmasdan, ravon tashish
		5. Manzilga yetgach, aravacha yoki zambil tormozini qulflash va bemorni tushirishga ko'maklashish
		Ko'nikmalar:
		Transport vositalarini boshqarish
		Tormoz tizimlarini tez va ishonchli mahkamlash
		Bemorni ehtiyotkorlik bilan ko'tarish va joylashtirish
		Qiyaliklarda va ostonalarda aravachani to'g'ri haydash
		Jismoniy kuchni to'g'ri taqsimlash
		Bilimlar:
	Tibbiyot muassasasi ichida bemorlarni tashish qoidalari va marshrutlari	
	Nogironlik aravachasi va tibbiy zambilning tuzilishi hamda ishlash prinsipi	
	Pandus va liftlardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi	
	Bemorni ko'tarish va joylashtirishda biomexanika qoidalari	
	Tashish jarayonida bemor bilan muloqot qilish etikasi	
	B4.02.3- Muolaja paytida bemorning umumiy ahvolini kuzatish va noqulaylik sezilganda darhol mutaxassisni chaqirish	Mehnat harakatlari:
		1. Muolaja qabul qilayotgan bemorni doimiy vizual nazorat qilish
		2. Bemordan o'zini qanday his qilayotganligini va noqulaylik bor-yoqligini so'rash
		3. Bemorning ahvoli o'zgarganda yoki shikoyat qilganda darhol mutaxassisni chaqirish
		4. Vahima holatida bemorni tinchlantirish va unga psixologik dalda berish
5. Zarurat tug'ilganda bemorga suv uzatish yoki toza havo kelishini ta'minlash		
Ko'nikmalar:		
Bemor holatidagi o'zgarishlarni tez payqash		
Bemor bilan samimiy va ishonchli muloqot o'rnatish		
Vaziyatni to'g'ri baholash va vahimaga tushmaslik		
Axborotni mutaxassisga qisqa va aniq yetkazish		
Bemorga g'amxo'rlik ko'rsatish (suv berish, yelpish)		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Fizioterapiya muolajalari vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar</p> <p>Og'riq va bezovtalikning tashqi belgilari</p> <p>Tibbiy xodimlar o'rtasida tezkor xabar berish va chaqiruv tartibi</p> <p>Bemor bilan muloqot qilish va tinchlantirish usullari</p> <p>Birinchi yordam ko'rsatishning oddiy elementlari</p>
	B4.03.3- Xonada texnik xavfsizlik qoidalarini nazorat qilish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Muolaja xonasi polining quruq va toza ekanligini, sirpanib ketish xavfi yo'qligini muntazam tekshirish</p> <p>2. Elektr simlari va kablarning osilib turmasligi hamda yo'lakda to'siq bo'lmasligini ta'minlash</p> <p>3. Xonadagi yoritish asboblari va ventilyatsiya tizimining ishlashini nazorat qilish</p> <p>4. Nosoz rozetkalar, singan mebellar yoki xavfli jihozlarni aniqlab, foydalanishdan cheklash</p> <p>5. Suv to'kilganda zudlik bilan tozalash choralari ko'rish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Xavfli vaziyatlarni vizual aniqlash</p> <p>Ish joyini xavfsiz va tartibli saqlash</p> <p>To'kilgan suyuqliklarni tez va samarali tozalash</p> <p>Elektr jihozlarini tarmoqdan to'g'ri uzish</p> <p>Xavfsizlik belgilarini o'z o'rnida qo'llash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tibbiyot xonalarida mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik qoidalari</p> <p>Elektr tokidan shikastlanishning oldini olish choralari</p> <p>Yiqilish va jarohatlanishga sabab bo'luvchi omillar</p> <p>Yong'in xavfsizligi va evakuatsiya yo'llari</p> <p>Texnik nosozliklar haqida xabar berish tartibi</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Bemorlarni bo'lim ichida tashish jarayonida ularning jismoniy xavfsizligini to'liq ta'minlash va jarohatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Muolaja vaqtida bemorni nazoratsiz qoldirmaslik va doimiy vizual kuzatuvni amalga oshirish</p> <p>3. Xonadagi texnik xavfsizlik holatini mustaqil baholash va xavfni bartaraf etish</p> <p>4. Bemorning ahvoli og'irlashganda zudlik bilan mutaxassisni chaqirish va o'z vakolati doirasida yordam berish</p> <p>5. Bemor bilan muloqotda maxfiylikni saqlash va etika qoidalarini buzmaslik</p> <p>6. Oddiy parvarish ishlarini mustaqil va sifatli bajarish</p>

Texnik va/yoki texnologik talab	Sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan muolaja xonalari, tibbiy kushetkalar va stullar, bemorni to'sib turish uchun shirmalar, nogironlik aravachalari va tibbiy zambillar, yordamchi zinapoyalar, fiksatsiya kamarlari va qum xaltachalari, elektrod qistirmalari va kontakt gellar, parafin eritish uskunalari, tozalash va dezinfeksiya inventarlari, shaxsiy himoya vositalari (xalat, niqob, qo'lqop), toza choyshab va sochiqlar zaxirasi, kirlarni yig'ish uchun maxsus qoplar
--	--

Kasbning nomi:	Gidroterapiya texnigi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32550	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ushbu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan avvalgi ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Yuqori namlik va shovqin sharoitida ishlashga jismoniy chidamlilik, diqqatni jamlash, texnik qurilmalarni boshqarish qobiliyati, kuzatuvchanlik va bemorlar xavfsizligiga mas'uliyat bilan yondashish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Reabilitatsiya terapevti
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.4- Gidroterapiya va balneologik muolajalarga tayyorgarlik ko'rish hamda eritmalarni tayyorlash	D1.01.4- Shifokor tayinlov varaqasiga asosan vannalar uchun kerakli harorat rejimini termometr yordamida aniq sozlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Shifokorning yo'llanma varaqasidagi suv harorati bo'yicha ko'rsatmani o'qib chiqish
		2. Vanna to'ldirish jarayonida suv termometrini o'rnatish va harorat ko'rsatkichini doimiy kuzatib turish
		3. Issiq va sovuq suv kranlarini boshqarib, haroratni belgilangan darajaga aniq keltirish
		4. Tayyor bo'lgan vannaning harorati xona haroratiga qarab o'zgarib ketmasligini nazorat qilish
		5. Harorat o'lchagich butunligini va to'g'ri ishlayotganligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Suv haroratini 1°C aniqlikgacha tezkor sozlash
		Termometr shkalasini to'g'ri o'qish
		Nosoz kranlar yoki termometrlarni aniqlash
		Vannani suv bilan to'ldirish vaqtini to'g'ri chamalash
		Bilimlar:
		Suv harorati rejimlari: sovuq, salqin, indifferent, iliq, issiq
Haroratning inson organizmiga fiziologik ta'siri		

		Suv termometrlarining turlari va ulardan foydalanish qoidalari
		Kuyishni oldini olish bo'yicha xavfsizlik texnikasi
		Suv ta'minoti tizimi va aralashtirgichlarning ishlash prinsipi
	D1.02.4- Balneologik vannalar uchun maxsus konsentratlar va tuzlarni texnologik xaritaga muvofiq eritish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor ko'rsatmasiga binoan kerakli miqdordagi dengiz tuzi, ignabargli ekstrakt yoki mineral qo'shimchalarni o'lchab olish
		2. Quruq moddalarni bevosita vannaga tashlamasdan, avval alohida idishda issiq suvda to'liq eritib olish
		3. Tayyorlangan suyuq konsentratni vanna suviga qo'shish va suv hajmi bo'ylab bir xil taqsimlanishi uchun aralashtirish
		4. Suvning rangi va hidiga qarab eritma to'g'ri konsentratsiyada tayyorlanganligini vizual baholash
		5. Kimyoviy faol moddalar bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Tibbiy tarozi va o'lchov idishlaridan aniq foydalanish
		Tuzlarni cho'kma qoldirmasdan to'liq eritish
		O'tkir hidli va bo'yovchi moddalarni suvga qo'shishda ehtiyotkorlik qilish
		Eritmaning tayyorligini rangi va tinikligiga qarab aniqlash
		Dozani oshirib yuborish holatlarini oldini olish
		Bilimlar:
		Balneologik vositalarning turlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari
		Vanna hajmi va dori moddasi nisbatini hisoblash qoidalari
		Kimyoviy moddalarni suvda eritish ketma-ketligi va xavfsizlik texnikasi
	Konsentratlarning vannaning emal qoplamasiga va quvurlarga ta'siri	
	Moddalarni saqlash sharoitlari va yaroqlilik muddati	
	D1.03.4- Gazli vannalarni tayyorlashda gaz ballonlari va kompressorlar bosimini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Gazli vannalar uchun maxsus havo tarqatuvchi panjarani vanna tubiga o'rnatish va shlangni mahkam ulash
		2. Kompressor yoki gaz ballonini ishga tushirish hamda manometr orqali chiquvchi bosimni tekshirish
		3. Gaz pufakchalarining suvda bir me'yorda va kerakli intensivlikda chiqishini sozlash
		4. Karbonat angidridli vannalarda gazning xonaga sizib chiqmasligini va vanna usti yopilishini nazorat qilish
		5. Muolaja yakunlangach, gaz ta'minoti kranini to'liq yopish va tizimni bosimdan ozod qilish

		Ko'nikmalar:
		Gaz uzatish tizimini to'g'ri va xavfsiz ulash
Havo yoki gaz bosimini ravon sozlash		
Tizimdagi nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash		
Gaz pufakchalarining o'lchami va intensivligini vizual baholash		
Ballonlarni almashtirish va saqlash qoidalarini qo'llash		
Bilimlar:		
Gazli vannalarning turlari va ularni tayyorlash texnologiyasi		
Yuqori bosimli idishlar va kompressorlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari		
Manometr ko'rsatkichlarining ishchi va kritik chegaralari		
Gazlarning suvda erish xususiyatlari va harorat rejimi		
Karbonat angidrid gazining xususiyatlari va uning me'yordan ortiq to'planishi xavfi		
D1.04.4- Gidroterapiya uskunalarining sozligini va yerga ulanishini ish boshlashdan oldin tekshirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Gidroterapiya zali uskunalarini vizual ko'zdan kechirish	
	2. Elektr dvigatellari va metall korpuslarning yerga ulanganligini hamda simlar izolyatsiyasini tekshirish	
	3. Kranlar, ventillar va dush uchliklarining to'g'ri ishlashini hamda suv oqmayotganligini sinab ko'rish	
	4. Vannalarning suv chiqarish tizimi tiqilib qolmaganligini va suvning erkin ketishini nazorat qilish	
	5. Nosozlik aniqlanganda uskuna elektr ta'minotini uzish va "Nosoz" belgisini qo'yib, muhandisga xabar berish	
	Ko'nikmalar:	
	Uskunalarni ishga tushirishdan oldin test rejimida tekshirish	
	Suv sizib chiqish yoki elektr toki urish xavfini erta aniqlash	
	Bosim o'lchagich va termometr ko'rsatkichlarini to'g'ri tahlil qilish	
	Kran va ventillarni ravon boshqarish	
	Kichik texnik nosozliklarni bartaraf etish	
	Bilimlar:	
	Gidroterapiya uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsipi	
	Nam xonalarda elektr xavfsizligi qoidalari va yerga ulash tizimining ahamiyati	
	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarining oddiy sxemasi	
	Uskunalarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha texnik reglamentlar	
	Avariyaviy holatlarda uskunalarni tezkor to'xtatish tartibi	

	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Shifokor tayinlagan harorat rejimi va eritma konsentratsiyasini aniq ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik 2. Kimyoviy moddalar va gazlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy rioya qilish 3. Bemorning suvga tushishidan oldin vanna va uskunalarning texnik sozligini hamda elektr xavfsizligini kafolatlash 4. Suv, elektr energiyasi va qimmatbaho balneologik vositalardan tejamkorlik bilan foydalanish 5. Uskunalarni ishga tushirish va murakkab eritmalarni tayyorlash jarayonini texnologik xarita asosida mustaqil bajarish 6. Nosoz yoki xavfli uskunani aniqlaganda uni ishlatmaslik va ta'mirlashga buyurtma berish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
D2.4- Suv bilan davolashning maxsus texnik muolajalarini bajarish	D2.01.4- Umumiy va mahalliy vannalarni o'tkazishda bemorning suvga tushishini va vaqtini nazorat qilish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bemorni vanna ichiga sekin va ehtiyotkorlik bilan tushishiga ko'maklashish 2. Bemorning tanasi suvga to'liq yoki qisman botishini nazorat qilish 3. Muolaja vaqtini taymer yordamida aniq belgilash 4. Vanna qabul qilish jarayonida suv harorati pasayib ketsa, ehtiyotkorlik bilan issiq suv qo'shib me'yorni tiklash 5. Vaqt tugagach, bemorga vannadan chiqishda yordam berish va sochiq/choyshab uzatish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Taymer va vaqtini to'g'ri nazorat qilish</p> <p>Suv haroratini bemor ichida bo'lgan vaqtda xavfsiz rostdash</p> <p>Bemorning holatini masofadan vizual baholash</p> <p>Bemorni vannadan turg'izishda jismoniy tayanch bo'lish</p> <p>Muolajadan so'ng bemorni issiq o'rash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Umumiy, o'tirib qilinadigan va mahalliy vannalarni o'tkazish metodikasi</p> <p>Suv sathi va bemorning yurak sohasi joylashuvi bo'yicha qoidalar</p> <p>Muolaja davomiyligi va takrorlanish tartibi</p> <p>Vanna qabul qilish vaqtida yuzaga keladigan fiziologik o'zgarishlar</p> <p>Kexsa va zaif bemorlarni vannaga tushirish-chiqarish xavfsizligi</p> <p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Suv oqimini bemorga belgilangan masofadan yo'naltirish

	<p>D2.02.4- Sharko dushi va Shotland dushini o'tkazishda suv oqimi bosimi va masofani texnik to'g'ri boshqarish</p>	<p>2. Suv bosimini va haroratini bemorning jismoniy holati hamda sezgirligiga qarab boshqarish</p> <p>3. Suv oqimini "yoyilgan" (veerniy) va "ixcham" (kompakt) shakllarda, oyoqdan boshlab yuqoriga qarab sxema bo'yicha yo'naltirish</p> <p>4. Shotland dushida issiq (37-40°C) va sovuq (20-25°C) suv oqimlarini navbatma-navbat (kontrast) almashtirish</p> <p>5. Suv oqimini taqiqlangan zonalarga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirmaslik</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Yuqori bosimli suv shlangini qo'lda mustahkam ushlab, nishonga aniq urish</p> <p>Bosim va haroratni kranlar orqali tezkor va ravon o'zgartirish</p> <p>Bemorning reaksiyasini kuzatib, masofani yoki bosimni o'zgartirish</p> <p>Suv oqimini uzluksiz va bir maromda harakatlantirish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Sharko va Shotland dushlarini o'tkazishning klassik metodikasi va ketma-ketligi</p> <p>Suv oqimi bosimining ruxsat etilgan me'yorlari va uning mushaklarga ta'siri</p> <p>Kontrast dushlarda harorat farqini bosqichma-bosqich oshirish qoidalari</p> <p>Kuchli suv bosimi ta'sirida jarohatlanishi mumkin bo'lgan tana sohalari</p> <p>Muolajaga qarshi ko'rsatmalar</p>
	<p>D2.03.4- Aylanma va yomg'irli dushlarda suv harorati va bosimining barqarorligini ta'minlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Dush tizimini ishga tushirish va bemor kirishidan oldin suv harorati hamda bosimini me'yorga keltirish</p> <p>2. Bemorni dush kabinasi yoki halqasi ichiga to'g'ri joylashtirish va suv oqimining tanaga bir tekis tegishini nazorat qilish</p> <p>3. Muolaja davomida suv bosimining o'ynab ketmasligini kuzatib turish</p> <p>4. Yomg'irli dushda suv tomchilarining intensivligini bemorning holatiga qarab sozlash</p> <p>5. Belgilangan vaqt tugagach, suvni o'chirish va bemorga sochiq uzatish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Aralashtirgich kranlarini aniq va barqaror holatda sozlash</p> <p>Suv bosimini manometr ko'rsatkichi bo'yicha nazorat qilish</p> <p>Bemor bilan dush panjarasi ortidan vizual aloqani saqlab turish</p> <p>Texnik nosozlik kuzatilganda muolajani xavfsiz to'xtatish</p>

		Dush qabul qilish vaqtida bemorning xavfsizligini ta'minlash
		Bilimlar:
Sirkulyar va yomg'irli dushlarning inson nerv tizimiga ta'siri		
Suvning optimal harorati (35-37°C) va muolaja davomiyligi standartlari		
Dush teshiklarining tiqilib qolish belgilari va tozalash zarurati		
Gidroterapiya kabinasida havo aylanishi va dimib ketishning oldini olish		
Bemorning bosh aylanishi yoki holsizlanish belgilarini aniqlash		
D2.04.4- Suv osti dush-massajini bajarishda massaj qoidalariga rioya qilgan holda, suv oqimini yo'naltirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Bemorni vannaga joylashtirib, suv haroratini (36-38°C) va massaj shlangidagi suv bosimini (1,5-4 atm) sozlash	
	2. Suv oqimini tana yuzasiga burchak ostida yo'naltirish	
	3. Massaj harakatlarini limfa oqimi yo'nalishi bo'ylab bajarish	
	4. Suv oqimi masofasini (10-15 sm) o'zgartirish orqali bosim kuchini bemorning sezgisiga va mushak qalinligiga moslab boshqarish	
	5. Qorin va yurak sohasida bosimni pasaytirib, aylanma harakatlar bilan ehtiyotkorlikda ishlash	
	Ko'nikmalar:	
	Yuqori bosimli massaj shlangini qo'lda erkin va aniq boshqarish	
	Suv oqimi bosimini masofa va burchak orqali ravon o'zgartirish	
	Anatomik massaj liniyalarini vizual topish va ularga rioya qilish	
	Terining qizarishi va bemor reaksiyasini baholash	
	Uskuna ishlayotganda shovqin va suv sachrashiga qaramay diqqatni jamlash	
	Bilimlar:	
	Suv osti dush-massajining o'tkazish texnikasi va fiziologik ta'siri	
	Limfa va qon tomirlarining yo'nalishi	
	Suv bosimining ruxsat etilgan me'yorlari va taqiqlangan zonalar	
	"Tangentsial oqim" hosil qilish qoidalari va uning ahamiyati	
Tromboflebit, varikoz va o'tkir yallig'lanishda massajga qarshi ko'rsatmalar		

	D2.05.4- Kontrast vannalar va dushlarda issiq va sovuq suv almashinuvi sxemasiga aniq rioya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Ikki yonma-yon vanna yoki dushni turli haroratlarda (biri issiq 38-42°C, ikkinchisi sovuq 15-25°C) tayyorlash
		2. Bemorni avval issiq suvga, so'ngra sovuq suvga tushish ketma-ketligini va vaqtini sekundomer bo'yicha boshqarish
		3. Almashinuv sikllarini takrorlash va harorat farqini bosqichma-bosqich oshirib borish
		4. Muolajani har doim sovuq suv bilan tugatish va terini qizartirib artish
		5. Bemorning issiq-sovuq almashinuviga reaksiyasini diqqat bilan kuzatish
		Ko'nikmalar:
		Ikki xil haroratni barqaror ushlab turish
		Vaqtni aniq sekundomerda nazorat qilish va buyruq berish
		Bemor bir vannadan ikkinchisiga o'tayotganda sirpanib ketishining oldini olish
	Bemorning individual chidamliligiga qarab haroratni moslashtirish	
	Muolajadan so'ng bemorni tez isitish choralarini ko'rish	
	Bilimlar:	
	Kontrast gidroterapiyaning qon tomirlariga ta'siri va fiziologik mexanizmi	
	Issiq va sovuq suvda turish vaqti nisbatlari va takrorlash soni standartlari	
	Harorat farqini oshirish tamoyillari	
	Kontrast muolajalarga qarshi ko'rsatmalar	
	Bemorning sovuq qotishi yoki qizib ketishi belgilari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	
	1. Shifokor tomonidan belgilangan muolaja parametrlariga qat'iy rioya qilish va o'zboshimchalik bilan o'zgartirmaslik	
2. Muolaja jarayonida bemorning xavfsizligini ta'minlash		
3. Suv osti massaji va kuchli bosimli dushlarda bemor tanasini jarohatlashdan saqlash		
4. Bemorning intim zonalarini daxlsizligini va etikani saqlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik		
5. Muolaja vaqtida bemorning holatini mustaqil baholash va "balneoreaksiya" belgilari sezilganda jarayonni to'xtatish bo'yicha qaror qabul qilish		
6. Hidroterapiya uskunalaridan texnik reglamentga muvofiq to'g'ri foydalanish		

Texnik va/yoki texnologik talab	Maxsus jihozlangan gidroterapiya zali, umumiy va mahalliy tibbiy vannalar, suv osti dush-massaj vannasi, Sharko dushi kafedrasi, sirkulyar va yomg'irli dush qurilmalari, suv haroratini nazorat qiluvchi termometrlar, suv bosimini o'lchovchi manometrlar, avtomatik suv aralashtirgichlar, gazli vannalar uchun kompressor va ballonlar, tibbiy kushetkalar, rezina gilamchalar, shaxsiy himoya vositalari, dezinfeksiya vositalari va tozalash inventarlari.
--	--

Kasbning nomi:	Elektroterapevt	
Mashg'ulot nomining kodi:	32550	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Texnik qurilmalar bilan ishlashga qiziqish, o'ta ehtiyotkorlik va diqqatni jamlash qobiliyati, mas'uliyatlilik, bemorlar bilan xushmuomala bo'lish va favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Fizioterapiya texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.5- Elektr xavfsizligi va apparatlar sozligini tekshirish	E1.01.5- Fizioterapiya apparatlarining korpusi yerga ulanganligini va simlar izolyatsiyasi butunligini vizual tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish boshlashdan oldin barcha apparatlarning elektr shnuri, vilkasi va tok o'tkazuvchi simlarining izolatsiyasi butunligini ko'zdan kechirish
		2. Apparat korpusining yerga ulash konturiga mahkam ulanganligini va boltlar bo'shab qolmaganligini tekshirish
		3. Rozetkalar va ulagichlarning qizib ketmaganligi hamda kuygan hid yoki qorayish izlari yo'qligini nazorat qilish
		4. Izolyatsiya buzilishi yoki yerga ulashda uzilish aniqlanganda apparatni tarmoqqa ulamaslik va "Nosoz" belgisini qo'yish
		Ko'nikmalar:
		Simlardagi mikrojarohatlarni va izolatsiya nuqsonlarini vizual aniqlash
		Yerga ulash qisqichlarining mexanik mahkamligini qo'l bilan tekshirish
		Nosozlik aniqlanganda tezkor chora ko'rish
Xavfsizlik texnikasi jurnaliga tekshiruv natijalarini qayd etish		

		Bilimlar:
		Tibbiy elektr uskunalari bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari
		Himoya yerga ulash tizimining maqsadi va ishlash prinsipi
		Elektr toki urishining sabablari va xavfli omillari
		Elektr izolyatsiyasi buzilishining tashqi belgilari
	E1.02.5- Muolaja vaqtida bemorning tok o'tkazuvchi qismlarga va metall buyumlarga tegib ketishining oldini olish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning tanasidan barcha metall buyumlarni yechishni talab qilish
		2. Bemor joylashgan kushetka yoki stulning metall qismlariga tegib ketmasligini ta'minlash
		3. Elektrod simlarini bemorning tanasiga tegmaydigan qilib, havoda yoki maxsus izolyatsiya qatlamlari ustidan o'tkazish
		4. Bemorga muolaja vaqtida apparat korpusiga tegish yoki metall buyumlarni ushlab taqiqlanishini tushuntirish
		Ko'nikmalar:
		Xavfli zonalarni vizual aniqlash va izolyatsiya qilish
		Simlarni tartibli va xavfsiz joylashtirish
		Bemorni metall buyumlardan uzoqroq masofada joylashtirish
		Qat'iy va tushunarli ko'rsatmalar berish
		Bilimlar:
		Elektr toki va metall buyumlarning o'zaro ta'siri
		"Yerga ulanish" zanjiri orqali tok urish mexanizmi
		Fizioterapiya xonasida bemorni xavfsiz joylashtirish qoidalari
		Bemorga xavfsizlik yo'riqnomasini tushuntirish etikasi
E1.03.5- Apparatlarni ishlatishdan oldin ularning sozligini test rejimida sinab ko'rish	Mehnat harakatlari:	
	1. Tarmoqqa ulashdan oldin barcha tok kuchi va vaqt regulyatorlari "nol" yoki "o'chiq" holatda ekanligini nazorat qilish	
	2. Apparatni elektr tarmog'iga ulash, "Tarmoq" tugmasini bosish va signal chiroqlarining yonishini tekshirish	
	3. Raqamli va zamonaviy apparatlarda "O'z-o'zini diagnostika qilish" rejimini ishga tushirish va ekrandagi natijani kuzatish	
	4. Tok kuchini boshqaruvchi potensiometrni sekin aylantirib, o'lchov asbobi yoki raqamli tablning ko'rsatkichlari silliq va sakramasdan o'zgarishini tekshirish	
	5. Tekshiruv yakunida barcha ko'rsatkichlarni yana "nol" holatiga qaytarish va apparatni ishlashga tayyorlash	

		<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Apparatlarni texnik reglament bo'yicha to'g'ri ketma-ketlikda ishga tushirish</p> <p>Boshqaruv tugmalari va aylanuvchi tutqichlarning mexanik sozligini his qilish</p> <p>O'lchov asboblari ko'rsatkichlarini aniq o'qish va tahlil qilish</p> <p>Kontaktlarning yo'qolishi yoki simlarning ichki uzilishini test rejimi orqali aniqlash</p> <p>Nosozlik aniqlanganda apparatni zudlik bilan tarmoqdan uzish va foydalanishni taqiqlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Bo'limdagi barcha fizioterapiya apparatlarining texnik pasporti va ekspluatatsiya yo'riqnomasi</p> <p>Apparatlarning ishchi holatga kelganligini bildiruvchi yorug'lik va tovush signallari</p> <p>Raqamli displeydagi texnik nosozlik kodlari va ularning ma'nosi</p> <p>Tok kuchi regulyatorlarining ishlash mexanizmi va nosozlik belgilari</p> <p>Turli fizik omillarni tekshirishning ekspress usullari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Barcha fizioterapiya apparatlarining elektr xavfsizligi va texnik sozligi uchun ish vaqtida shaxsiy javobgarlik 2. Nosozlik, simlarning uzilishi yoki kuygan hid aniqlanganda apparatni elektr tarmog'iga ulamaslik va foydalanishdan chiqarish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish 3. Muolaja vaqtida bemorning xavfsizligini ta'minlash 4. Apparatlarni ekspluatatsiya qilish va texnik pasport talablariga rioya etilishini nazorat qilish 5. O'z vakolati doirasida apparatlarni test rejimida sinab ko'rish, lekin ichki qismlarini ochish va ta'mirlashga urinmaslik 6. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha jurnalni yuritish va aniqlangan kamchiliklar haqida bo'lim mudiriga o'z vaqtida xabar berish
E2.5- O'zgarmas va past chastotali toklar yordamida davolash	E2.01.5 - Galvanizatsiya muolajasini o'tkazishda elektrodlarni joylashtirish va tok kuchini dozalash	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shifokorning yo'llanma varaqasidagi tashxis, elektrodlar joylashuvi va tok kuchi ko'rsatkichlarini o'rganib chiqish 2. Qo'rg'oshin plastinalar yuzasini ko'zdan kechirish, silliqqligini tekshirish 3. Hidrofil qistirmalarni iliq suvda ho'llash va ortiqcha suvini me'yorida siqib tashlash 4. Elektrod qo'yiladigan tana sohasini ko'zdan kechirish 5. Elektrodlarni patologik o'choqqa joylashtirish va qum xaltachalar yoki elastik bint yordamida tanaga

		zich qilib, lekin qon tomirlarini siqmasdan mahkamlash
		6. Simlarning uchlarini elektrodلarga ulash va qutblarni to'g'ri tanlash
		7. Apparatni tarmoqqa ulash va potensiometr "0" holatida ekanligini tekshirgach, "Tok" tugmasini bosish
		8. Tok kuchini milliampermetrga qarab, juda sekinlik bilan oshirib borish
		9. Bemordan his-tuyg'ularini so'rash va ignalar sanchilishi hissi paydo bo'lganda tokni oshirishni to'xtatish
		10. Muolaja vaqtini taymerda belgilash va jarayon davomida tok kuchi o'zgarib ketmasligini nazorat qilish
		11. Vaqt tugagach, avval tok kuchini sekin-asta "0"ga tushirish, so'ngra apparatni o'chirish
		12. Elektrodلarni yechib olish va teri qoplaminig holatini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Shifokor yozuvini to'g'ri tushunish va ijro etish
		Metall plastinalarni mexanik tozalash va silliqlash
		Qistirmalarni bir tekisda namlash va kerakli namlik darajasini qilish
		Elektrodلarni tananing murakkab joylariga havo bo'shlig'isiz zich joylashtirish
		Fiksatsiya vositalaridan unumli foydalanish, elektrod siljib ketishining oldini olish
		Simlarni qutblarga adashtirmasdan to'g'ri ulash
		Potensiometrni silkitmasdan, millimetrlab ravon aylantirish
		Bemor bilan muloqotda uning hissiyotlarini to'g'ri tahlil qilish
		Tok kuchini bemorning sezgisiga va o'lchov asbobi ko'rsatkichiga qarab muvozanatlash
		Muolaja vaqtini aniq nazorat qilish
		Apparatni texnik reglament bo'yicha to'g'ri o'chirish
		Teridagi o'zgarishlarni vizual baholash va zarur hollarda krem surtish
		Favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish va apparatni tarmoqdan uzish
		Bilimlar:
		Galvanizatsiyaning fizik xususiyatlari va to'qimalarga biofizik ta'siri
		Anod va Katod qutblarining fiziologik farqlari
		Elektrod qistirmalariga qo'yiladigan talablar
		Tok zichligi tushunchasi va yoshga oid me'yorlari
		Elektrodلarni joylashtirishning asosiy sxemalari

		Teri butunligi buzilganda, yiringli jarayonlarda va metall implantlar borligida galvanizatsiyaga qarshi ko'rsatmalar
		"Galvanik kuyish" sabablari va belgilari
		Bemorning tokka individual sezgirligi va "subyektiv hislar" farqi
		Apparatning ishlash prinsipi va boshqaruv paneli funksiyalari
		Xavfsizlik texnikasi qoidalari
		Muolaja vaqtini belgilash standartlari va kurs davomiyligi
		Teridagi normal giperemiya va patologik kuyishni farqlash belgilari
E2.02.5- Dori elektroforezi muolajasini bajarish va dori moddalarini qutbga mos ravishda kiritish		Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor tayinlov varaqasidagi dori moddasining nomi, konsentratsiyasi va kiritish qutbini aniqlashtirish
		2. Dori eritmasini tayyorlash va uning yaroqliligini tekshirish
		3. Gidrofil qistirma ostiga qo'yish uchun dori shimdirilgan filtr qog'oz yoki doka qavatini tayyorlash
		4. "Faol elektrod" va "Passiv elektrod"ni tananing belgilangan sohalariga joylashtirish
		5. Simlarning rangiga qarab qutblarni adashtirmasdan elektrodga ulash
		6. Apparatni yoqib, tok kuchini bemorning yengil sezgisigacha sekin ko'tarish
		7. Muolaja davomida bemorda allergik reaksiya belgilarini diqqat bilan kuzatish
		8. Jarayon tugagach, tokni nolgacha tushirib, apparatni o'chirish va elektrodni olish
		9. Bajarilgan muolaja va ishlatilgan dori miqdorini (dozasini) tibbiy varaqaga aniq qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Tibbiy ma'lumotnomalar yoki jadvallardan dori qutbini tez va aniq topish
		Dori eritmasini filtr qog'ozga yoki qistirmaga bir tekisda va tejamkorlik bilan shimdirish
		Faol va passiv elektrodni to'g'ri joylashtirib, tok zanjirini yopish
		Apparat qutblarini dori qutbiga moslab to'g'ri ulash
		Tok kuchini bemorning sezgisiga va dori turiga qarab optimal darajada sozlash
		Allergik reaksiyani boshlanishidayoq payqash va muolajani zudlik bilan to'xtatish
	Qistirmalarni yuvishda dori qoldiqlarini butunlay ketkazish yoki bir martalik qistirmalardan foydalanish	

		Hujjatlarni to'ldirishda dori nomi, foizi va qutbini xatosiz yozish
		Bemorga muolajadan keyin dori ta'siri davom etishini tushuntirish
		Bilimlar:
		Dori elektroforezining ta'sir mexanizmi va farmakokinetik xususiyatlari
		Asosiy dori vositalarining elektroforetik qutbliligi jadvali
		Erituvchilar turlari va ularni tanlash qoidalari
		Dori moddalarining ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi va bir martalik dozalari
		Bir vaqtning o'zida bir nechta dori kiritish qoidalari va nomutanosiblik
		Dori allergiyasi va anafilaktik shokning erta belgilari hamda birinchi yordam algoritmi
		Tok kuchini hisoblashda dori eritmasining elektr o'tkazuvchanlik xususiyatini inobatga olish
		Elektroforezga qarshi ko'rsatmalar
	E2.03.5- Muolajadan so'ng bemor terisining butunligini tekshirish va elektrod qistirmalarini sterilizatsiya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Elektrodlar olingandan so'ng terini vizual ko'zdan kechirish va kuchli qizarish, toshma yoki kuyish izlari yo'qligini tekshirish
		2. Bemor terisini quruq salftka bilan artish va zarurat bo'lsa yumshatuvchi krem yoki moy surtish
		3. Ishlatilgan gidrofil qistirmalarni oqar suvda yuvib, dori va ter qoldiqlaridan tozalash
		4. Qistirmalarni belgilangan tartibda qaynatish yoki avtoklavda sterilizatsiya qilish va quritish
		5. Qo'rg'oshin plastinalarni oksidlanishdan tozalash va yuzasini silliqlash
		6. Toza va steril qistirmalarni maxsus belgilangan yopiq idishlarda yoki bikslarda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Teridagi o'zgarishlarni to'g'ri baholash va tahlil qilish
Qistirmalarni dori qoldiqlaridan to'liq va sifatli tozalash		
Metall plastinalarni mexanik tozalash va silliqlash		
Sterilizatsiya uskunalari bilan xavfsiz ishlash		
Bemorga terini parvarishlash bo'yicha qisqa tavsiyalar berish		
Steril materiallarni nosteril buyumlardan ajratib saqlash		
Bilimlar:		
Galvanik kuyish" va allergik dermatitning klinik belgilari hamda sabablari		

		Fizioterapiya qistirmalarini sanitar ishlash bo'yicha SanQvaM talablari
		Metall elektrodni saqlash texnikasi va oksidlanishning tok o'tkazuvchanlikka ta'siri
		Terining normal fiziologik giperemiyasi va patologik kuyish o'rtasidagi farq
		Infeksiya nazorati va shaxsiy gigiyena qoidalari
		Terini parvarishlash vositalarining turlari va qo'llanilishi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Galvanizatsiya va elektroforez vaqtida bemor xavfsizligini ta'minlash hamda "galvanik kuyish" holatlariga yo'l qo'ymaslik uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Dori moddalarining qutbliligini to'g'ri aniqlash va kiritish texnologiyasiga qat'iy rioya qilish
		3. Bemorning individual sezgirligiga va subyektiv hislariga asoslanib, tok kuchini mustaqil ravishda boshqarish
		4. Elektrod qistirmalarining sanitariya holati, tozaligi va dori bilan ifloslanish darajasini nazorat qilish
		5. Muolaja vaqtida bemorda noxush sezgilar paydo bo'lganda jarayonni mustaqil to'xtatish va shifokorga xabar berish
		6. Ishlatilgan dori vositalarining hisobini to'g'ri yuritish va sarflanishini nazorat qilish
E3.5- Impulsi va o'rta chastotali toklar yordamida davolash	E3.01.5- Falajlangan mushaklarni elektrostimulyatsiya qilish va impuls rejimlarini tanlash	Mehnat harakatlari:
		1. Elektrostimulyatsiya o'tkaziladigan sohani ko'zdan kechirish va maxsus jadval asosida nerv-mushak apparatining "motor nuqtalari"ni aniqlash
		2. Faol elektrodni mushakning harakatlantiruvchi nuqtasiga, passiv elektrodni esa pay sohasiga yoki umurtqa pog'onasining tegishli segmentiga joylashtirish
		3. Mushakning shikastlanish darajasiga qarab apparatda impuls shaklini va chastotasini sozlash
		4. Tok kuchini bemorda mushakning aniq, og'riqsiz va ritmik qisqarishi paydo bo'lguncha sekinlik bilan oshirish
		5. Muolaja davomida mushakning toliqish belgilarini kuzatib borish va qisqarish kuchi kamaysa, dam olish vaqtini uzaytirish yoki muolajani to'xtatish
		Ko'nikmalar:
		Tugmali elektrod yordamida motor nuqtalarni tez va aniq topish
		Mushak qisqarishini chaqiruvchi minimal tok kuchini aniqlash
		Bemorning ixtiyoriy harakatlariga moslab stimulyatsiya ritmini sinxronlashtirish

		Mushak qisqarishining sifatini vizual va paypaslab baholash
		Apparat parametrlarini patologiya darajasiga moslab individual o'zgartirish
		Bilimlar:
		Odam anatomiyasi, nerv tolalari yo'nalishi va mushaklarning motor nuqtalari topografiyasi
		Elektrostimulyatsiya uchun ishlatiladigan impulslarning turlari va ularning fiziologik ta'siri
		Mushak tonusining o'zgarishlari va ularda stimulyatsiya o'tkazish xususiyatlari
		"Tok kuchi – Impuls davomiyligi" egri chizig'i haqida tushuncha
		Mushak toliqishi belgilari va ortiqcha stimulyatsiyaning zarari
		Spastik falajlikda stimulyatsiyaga qarshi ko'rsatmalar
	E3.02.5- Diadinamik va Amplipuls terapiya muolajalarida tok modulyatsiyasini sozlash	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor tayinlov varaqasidan tok turini va modulyatsiya rejimini aniqlash
		2. Elektrodlarni og'riq o'chog'iga nam qistirmalar bilan joylashtirish va mahkamlash
		3. Diadinamik terapiyada kerakli tok shaklini tanlash va qutbni belgilash
		4. Amplipuls terapiyada ish tartibini va modulyatsiya chastotasini apparat panelida sozlash
		5. Tok kuchini bemorda "chuqur, lekin og'riqsiz vibratsiya" hissi paydo bo'lguncha asta-sekin oshirish
		6. Muolaja davomida bemorning tokka o'rganib qolishini kuzatish va zarurat bo'lsa, tok kuchini biroz qo'shish yoki modulyatsiyani o'zgartirish
		Ko'nikmalar:
		"Tonus", "Amplipuls" seriyasidagi apparatlarning boshqaruv tugmalaridan to'g'ri foydalanish
		DDT muolajasida og'riq qoldiruvchi qutbni og'riq nuqtasiga to'g'ri joylashtirish
Bemorning "achishish" va "vibratsiya" hislarini farqlashiga yordam berish		
Tok kuchini bemorning og'riq bo'sag'asiga qarab individual va ravon sozlash		
Elektrodlarni tananing notekis yuzalariga zich o'rnatish		
Muolaja vaqtida tok kuchini korreksiya qilib turish		
Bilimlar:		
Diadinamik va Amplipuls toklarning fizik xususiyatlari hamda terapevtik farqlari		
Modulyatsiya turlari va ularning klinik maqsadi		
Tokning tashuvchi chastotasi va modulyatsiya chuqurligining to'qimalarga chuqur kirib borishiga ta'siri		

		Adaptatsiya fenomeni va uni oldini olish usullari		
		Og'riq sindromlarida va vegetativ buzilishlarda elektrodni joylashtirish qoidalari		
		O'tkir yallig'lanish va tromboz xavfi bor holatlarda qarshi ko'rsatmalar		
	E3.03.5 Elektrouyqu muolajasini o'tkazish va tinchlantiruvchi chastotani belgilash	Mehnat harakatlari:	1. Bemorga shovqinsiz va qorong'ilashtirilgan xonada qulay yotish sharoitini yaratish	
			2. Maxsus elektrodli maskani namlangan paxta tamponlari bilan ko'z qovoqlari ustiga va so'rg'ichsimon o'simta sohasiga joylashtirish	
			3. Shifokor ko'rsatmasiga binoan kerakli impuls chastotasini (5-20 Gs – uyqu chaqirish/tinchlantirish, 40-100 Gs – og'riq qoldirish) apparatda sozlash	
			4. Tok kuchini bemor qovoqlarida yengil, og'riqsiz tebranish yoki og'irlik hissi paydo bo'lguncha juda sekin oshirish	
			5. Muolaja vaqtida bemorning holatini kuzatish va uxlab qolish jarayonini nazorat qilish	
			6. Jarayon tugagach, tokni nolgacha tushirish, elektrodni yechish va bemorni to'satdan uyg'otmasdan biroz dam olishiga imkon berish	
		Ko'nikmalar:	Elektrodli maskani ko'z olmasini qattiq bosib qo'ymasdan, qulay va zich o'rnatish	
			Bemorning individual sezgirligiga qarab tok kuchini aniq topish	
			Muolaja xonasida psixologik qulay muhit yaratish	
			Uxlab qolgan bemor bilan ishlashda ehtiyotkorlik va sekin harakat qilish	
			Apparatning chastota regulyatorlaridan to'g'ri foydalanish	
		Bilimlar:	Elektrouyquning markaziy nerv tizimiga tormozlovchi ta'siri mexanizmi	
			Elektrodni orbital-oksipital joylashtirish usuli va ko'z xavfsizligi qoidalari	
			Past va yuqori chastotali impulslarning klinik samarasi farqlari	
			Ko'z kasalliklari va yuz terisi jarohatlarida muolajaga qarshi ko'rsatmalar	
			Bemorning psixo-emotsional holati va uyqu buzilishi turlari	
			Mehnat harakatlari:	Interferension terapiya uchun 2 juft elektrodni og'riq o'chog'ini o'rab turadigan qilib, "xochsimon" usulda joylashtirish

	E3.04.5- Interoreseptiv va flyuktuatsiya toklari yordamida og'riqsizlantirish muolajalarini bajarish	Flyuktuatsiya muolajasida elektrodni patologik sohaga moslab o'rnatish
		Shifokor ko'rsatmasiga binoan tok shaklini va chastota diapazonini tanlash
		Tok kuchini bemorda to'qima ichida "chuqur va yoqimli vibratsiya" hissi paydo bo'lguncha ravon oshirish
		Muolaja vaqtida elektrod ostida achishish hissi paydo bo'lmasligini va kontaktning zichligini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		To'rtta elektrodni zanjirlarni adashtirmasdan to'g'ri ulash va kesishtirish
		Interferensiya markazini og'riq o'chog'iga aniq to'g'irlash
		Flyuktuatsiya apparatida tok shaklini patologiya bosqichiga qarab tanlash
		Bemorning his-tuyg'ularini to'g'ri farqlash va tahlil qilish
		Yuz sohasida ishlaganda elektrodni ehtiyotkorlik va aniqlik bilan mahkamlash
		Muolaja samarasini oshirish uchun chastotalarni to'g'ri o'zgartirish
		Bilimlar:
		Interferensiya toklarning hosil bo'lish mexanizmi
		Flyuktuatsiya toklarning aperiodik xususiyati, og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishga qarshi ta'siri
		Elektrodni "xochsimon" joylashtirish qoidasi va interferensiya zonasi
		Tana yuzasi bilan kontaktni ta'minlashda xavfsizlik qoidalari
		Qurilmani sozlashda kuchlanish, vaqt va chastotani belgilash mezonlari
		F7.02.5- TENS terapiya parametrlari va kontakt zonasini aniqlash
	1. TENS muolajasiga oid shifokor ko'rsatmasini tahlil qilish	
	2. Bemorning og'riq yoki muammo hududini aniqlash	
	3. Tana yuzasida kontakt zonani tanlash va belgilash	
	4. Qurilma parametrlarini shifokor ko'rsatmasiga muvofiq belgilash	
	5. Elektrod joylashtiriladigan hududni tozalash va quritish	
	6. Elektrodlarni kontakt zonaga belgilangan tartibda joylashtirish	
	7. Qurilmani ishga tushirish va bemorning sezgirligini kuzatish	
	Ko'nikmalar:	
	Shifokor ko'rsatmasidan TENS terapiyasi uchun kerakli parametrlarni aniqlash	
	Og'riq yoki muammo hududini aniqlash va kontakt zonasini tanlash	
	Tana yuzasini tekshirib, elektrod joylashtirishga tayyorlash	
	TENS apparatining parametrlarini to'g'ri sozlash	
	Elektrodlarni kontakt zonaga teng va xavfsiz joylashtirish	
	Qurilmani ishga tushirgandan so'ng bemorning reaksiyasini kuzatish	
	Zarur hollarda apparat sozlamalarini muvofiqlashtirish	
	Bilimlar:	
	TENS terapiyasining maqsadi, indikatsiyalari va kontrindikatsiyalari	
Og'riq zonasini aniqlash mezonlari va bemordan vizual kuzatuv orqali axborot olish usullari		

		TENS apparatining asosiy qismlari, ularning funksiyalari va texnik xususiyatlari
		TENS parametrlarini (kuchlanish, chastota, impuls davomiyligi) sozlash tartibi
		Elektrod joylashtirish sxemalari va tanaga to'g'ri ta'sir qilish tamoyillari
		Elektrod kontakt yuzalarini gigiyenik holatga keltirish va o'rnatish qoidalari
		Bemorda noqulaylik yoki og'riq belgilari yuzaga kelganda to'g'ri harakat qilish protokollari
	F7.03.5- Vibratsion terapiyani bemor holatiga mos tarzda qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Vibratsion terapiya bo'yicha shifokor ko'rsatmasini tahlil qilish
		2. Bemorning umumiy holatini vizual baholash
		3. Muolaja o'tkaziladigan sohani aniqlash va gigiyenik tayyorlash
		4. Vibratsion apparat turini va ta'sir rejimini tanlash
		5. Qurilmani muolaja parametrlariga mos sozlash
		6. Bemorni to'g'ri holatda yotqizish
		7. Qurilmani belgilangan zona bo'ylab xavfsiz va barqaror harakatlantirish
		Ko'nikmalar:
		Shifokor ko'rsatmasini asoslangan tarzda tahlil qilish
		Bemor holatini baholab, muolaja sohasini aniqlash
		Tana yuzasini gigiyenik tayyorlashni to'g'ri bajarish
		Vibratsion terapiya apparatini xavfsiz sozlash
		Muolajaga mos rejim va vositani tanlash
		Bemorni to'g'ri holatda yotqizish va joylashtirish
		Qurilmani bemorning holatiga mos holda barqaror va xavfsiz harakatlantirish
		Bilimlar:
		Vibratsion terapiyaning terapevtik maqsadlari, asosiy usullari va ta'sir mexanizmi
		Vibratsiya uskunarining turlari, tuzilishi va ish rejimlari
		Bemor holatiga qarab vibratsion muolaja zonasini belgilash mezonlari
	Qurilmani xavfsiz sozlash, muolaja vaqtini va intensivligini belgilash qoidalari	
	Vibratsion terapiya uchun kontrindikatsiyalar va xavf holatlari	
	Bemorni to'g'ri joylashtirish, holatini nazorat qilish va qulaylikni ta'minlash talablari	
	Sanitariya-gigiyena va apparat xavfsizligi me'yorlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shifokor ko'rsatmasiga muvofiq qo'shimcha fizioterapevtik muolajalarni xavfsiz va samarali bajarish uchun javobgarlik

		2. Bemorning holatini hisobga olib, apparat parametrlarini ehtiyotkorlik bilan sozlash va muolajani mustaqil tashkillashtirish	
		3. Muolaja davomida bemorning reaksiyasini nazorat qiladi va zarurat tug'ilganda shifokorni xabardor qilish bo'yicha mas'uliyat	
		4. Uskunalar bilan ishlashda texnik xavfsizlik va sanitariya talablariga rioya qilish	
F8.5- Tibbiy apparatlarni sozlash, gigiyenik ishlov berish va texnik tayyorlash	F8.01.5- Qurilmani ishlashga tayyorlash va sozlash	Mehnat harakatlari:	
		1. Qurilmaning tashqi holatini ko'zdan kechirish	
		2. Qurilmaning elektr ta'minoti va simlarining holatini tekshirish	
		3. Qurilmaning ishlashga tayyorligini dastlabki diagnostika orqali aniqlash	
		4. Qurilma parametrlarini shifokor ko'rsatmasiga muvofiq sozlash	
		5. Boshqaruv elementlarining ishlashini sinovdan o'tkazish	
		6. Nosozlik aniqlanganda elektr ta'minotini uzish va rahbarga xabar berish	
		7. Qurilmaning muolajaga tayyor holatini tasdiqlash	
		Ko'nikmalar:	
		Qurilmaning tashqi holatini texnik jihatdan baholash	
		Elektr ta'minoti va ulanish simlarini xavfsiz tekshirish	
		Qurilmaning ishga yaroqliligini aniqlash uchun dastlabki sinovlarni o'tkazish	
		Qurilma parametrlarini klinik ko'rsatmalarga muvofiq sozlash	
		Qurilma boshqaruv tugmalaridan to'g'ri foydalanish	
		Qurilmaning muolajaga tayyor holatini mustaqil baholash	
		Bilimlar:	
		Fizioterapevtik uskunalarining asosiy turlari, tuzilishi va ishlash prinsiplari	
		Qurilmaning elektr xavfsizligi qoidalari va ulanish talablari	
		Qurilma parametrlarini sozlash tartibi va foydalanish yo'riqnomasi asoslari	
		Tibbiy qurilmalarning dastlabki ishga tushirish algoritmlari	
		Qurilmaning ishlashga tayyorligini baholash mezonlari	
		Qurilma boshqaruv panellari va indikatorlarining funksiyalari	
		Qurilma nosozligini aniqlash uchun asosiy belgilar	
			Mehnat harakatlari:
			1. Qurilma yuzasining ifloslik darajasini vizual baholash
			2. Qurilmaning elektr ta'minotini xavfsiz tarzda uzish

F8.02.5- Muolajadan oldin va keyin apparatni tozalash va dezinfeksiyalash	3. Qurilma yuzasini tozalash uchun mos vositalarni tanlash	
	4. Qurilma sirtini gigiyenik qoidalarga muvofiq tozalash	
	5. Qurilmaning kontakt yuzalarini dezinfeksiyalash qoidalariga rioya qilish	
	6. Qurilmani muolajaga tayyor holatga keltirish uchun tozalanganligini tasdiqlash	
	Ko'nikmalar:	
	Qurilma yuzasining tozalik holatini aniqlash	
	Qurilmani xavfsiz tarzda elektr tarmog'idan uzish	
	Tozalovchi va dezinfeksiyalovchi vositalarni to'g'ri tanlash	
	Qurilma yuzalarini sanitariya talablariga muvofiq tozalash	
	Kontakt sirtlarni dezinfeksiyalash tartibini amalda bajarish	
	Qurilmani gigiyenik ishlovdan keyin qayta ishlashga tayyor holga keltirish	
	Bilimlar:	
	Fizioterapevtik qurilmalarning ifloslanishga sezuvchan qismlari va xavf zonalar	
	Tibbiy uskunalarni uchun mo'ljallangan tozalovchi va dezinfeksiyalovchi vositalarning turlari va qo'llanish qoidalari	
	Qurilmalarni tozalash va dezinfeksiyalash bo'yicha sanitariya-gigiyena talab va me'yorlari	
	Infeksiyani oldini olish choralariga oid klinik xavfsizlik protokollari	
	Elektr xavfsizligi bo'yicha qurilmalarni ishlov berishdan oldin bajarilishi lozim bo'lgan choralar	
	Tibbiy asbob-uskunalar tozalashda ketma-ketlik va nazorat talablari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Qurilmalarning texnik sozligi, gigiyenik holati va xavfsiz ishlashiga doir vazifalarni belgilangan tartibda mustaqil bajarish
		2. Qurilmalarda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlab, rahbariyatga o'z vaqtida xabar berish uchun mas'ul bo'lish
3. Qurilmalarning dezinfeksiyalash, tozalash va tayyorlash protokollariga rioya qilish		
4. Ish davomida texnik xavfsizlik va sanitariya-gigiyena talablari asosida harakat qilish		
5. O'z faoliyati doirasida mustaqil qaror qabul qilish, lekin klinik ko'rsatmalar bo'yicha shifokor nazoratiga asoslanish		

F9.5- Tibbiy hujjatlar bilan ishlash va muolajalarni qayd qilish	F9.01.5- Shifokor topshirig'iga asosan muolajani aniqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor tomonidan yozilgan topshiriqni o'qish
		2. Topshiriqda ko'rsatilgan fizioterapevtik muolaja turini aniqlash
		3. Bemorning individual xususiyatlarini hisobga olib muolajani aniqlashtirish
		4. Topshiriqdagi ma'lumotlar asosida bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar ketma-ketligini belgilash
		5. Noaniqliklar aniqlanganda shifokorga murojaat qilish
		6. Yakuniy muolajani hujjat asosida belgilab olish
		Ko'nikmalar:
		Tibbiy hujjatlarda berilgan topshiriqlarni o'qish va tahlil qilish
		Fizioterapevtik muolajalar turlari bo'yicha tegishli topshiriqni ajratish
		Muolajani bemorning holatiga mos ravishda aniqlashtirish
		Muolajalar ketma-ketligini tartib bilan tuzish
		Noaniq yoki noto'g'ri yozilgan topshiriqlar bo'yicha shifokor bilan muloqot qilish
		Muolajani yakuniy hujjat shaklida aniq va ravshan belgilash
		Bilimlar:
		Shifokor topshiriqlarini rasmiy hujjat shaklida berish tartibi
	Fizioterapevtik muolajalar turlari va ularning klinik qo'llanilish sohasi	
	Muolajani bemorning jismoniy va ruhiy holatiga moslashtirish mezonlari	
	Tibbiy hujjatlar yuritish tartibi va yozuv standartlari	
	Shifokor bilan muloqot qilish qoidalari va mas'uliyat chegarasi	
	Klinik amaliyotda muolajani aniqlashtirishga oid axborot almashinuvi tamoyillari	
	F9.02.5- Muolaja jurnali yoki elektron kartochkada natijani qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. Muolaja turi va vaqti haqida ma'lumotlarni aniqlashtirish
		2. Bemorning individual ma'lumotlarini tekshirish
		3. Muolajadan keyingi natijalarni baholash
		4. Kerakli jurnal yoki elektron shaklni ochish
5. Muolaja natijalarini tibbiy hujjat talablariga muvofiq tarzda yozib chiqish		
6. Qayd yozuvining to'liqligi va aniqligini nazorat qilish		
Ko'nikmalar:		
Muolajadan keyingi bemor holatini aniqlash va tavsiflash		
Tibbiy muolaja natijalarini qisqacha, aniq va xolis tarzda ifodalash		

		Tibbiy jurnal yoki elektron kartochka bilan ishlash texnikasini qo'llash
		Qayd yozuvini tibbiy yozuv qoidalariga muvofiq kiritish
		Axborot xavfsizligi va maxfiylik talablariga rioya qilish
		Muolaja yozuvlarini tizimli va izchil yuritish
		Bilimlar:
		Fizioterapevtik muolajalarni qayd etish uchun yuritiladigan jurnal va elektron shakllarning turlari
		Tibbiy yozuvlar uchun amal qilinadigan huquqiy va axborot xavfsizligi talablari
		Tibbiy hujjatlar yuritish tartibi va yozuv shakllarining tuzilmasi
		Bemor muolaja natijalarini baholash mezonlari
		Tibbiy terminologiya va qisqartmalarni to'g'ri qo'llash qoidalar
		Elektron sog'liqni saqlash tizimida ma'lumot kiritish bosqichlari va xavfsizlik protokollari
		Mehnat harakatlari:
		1. Muolajadan keyingi bemor holatini tibbiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish
		2. Muolaja jarayonida qayd etilgan natijalarni hujjatlar asosida ko'rib chiqish
		3. Bemorning subyektiv his-tuyg'ulari va holatini o'rganish
		4. Baholash mezonlarini shifokor bilan muhokama qilish
		5. Muolaja samaradorligi haqida umumiy xulosa chiqarish
		6. Shifokor tomonidan belgilangan qaror va tavsiyalarni hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Muolajadan keyingi bemor holatini tahlil qilish va taqqoslash
		Baholash natijalarini tibbiy ko'rsatkichlar asosida ifodalash
		Bemor fikrini izchil va ob'ektiv tarzda eshitish va tahlil qilish
		Muolaja hujjatlarini tahlil qilish va asosiy ma'lumotlarni ajratish
		Tibbiy baholash jarayonida shifokor bilan samarali hamkorlik qilish
		Yakuniy xulosani hujjatlashtirish qoidalarini amalda qo'llash
		Bilimlar:
		Fizioterapevtik muolajalarning klinik samaradorlik mezonlari
		Tibbiy holat dinamikasini baholash mezonlari (yurak urishi, tana harorati, og'riq darajasi va h.k.)
	F9.03.5- Muolaja samaradorligini shifokor bilan birgalikda baholash	

		Bemorning subyektiv va ob'ektiv javoblarini farqlash qoidalari
		Tibbiy xulosalarni shakllantirish tartibi va huquqiy chegaralari
		Shifokor bilan hamkorlikda baholash protokoli va muloqot qoidalari
		Klinik qaror qabul qilishda yordamchi ma'lumotlarni tahlil qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Muolajalar haqida aniq, ishonchli va huquqiy ahamiyatga ega yozuvlarni yuritish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi
		2. Bemor reaksiyalari va natijalarni o'z vaqtida hujjatlashtirish orqali klinik qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi
		3. Shifokor bilan baholashda faol ishtirok etadi va muolaja samaradorligi bo'yicha tahliliy fikr bildiradi
		4. Tibbiy hujjatlar maxfiylikni ta'minlash va axborot xavfsizligiga qat'iy rioya qilish mas'uliyatini oladi
		5. Belgilangan tartibda ishlaydi, lekin o'z faoliyat doirasida mustaqil ravishda hujjatlarni to'g'ri va tizimli yuritadi
		F10.5- Fizioterapiya xonasi ishini tashkillashtirish va materiallar bilan ishlash
1. Fizioterapiya xonasining umumiy tozaligini tekshirish		
2. Ish sirtlarini dezinfeksiyalash vositalari bilan artish		
3. Muolaja uchun zarur apparat va asboblarni belgilangan tartibda joylashtirish		
4. Sarf materiallarini tartibli holatda tayyorlash		
5. Bemor uchun individual toza choyshab va himoya vositalarini tayyorlash		
6. Ish joyidagi chiqindilarni to'g'ri ajratish va sanitariya talablari asosida yo'q qilish		
Ko'nikmalar:		
Xonadagi yuzalarni tozalash va dezinfeksiya qilish tartibiga rioya qilish		
Tibbiy apparatlar va asboblarni muolaja oldidan joylashtirishni tashkil qilish		
Sarf materiallarini muolaja turiga mos holda tizimli joylashtirish		
Gigiyena talablariga mos ravishda bemor uchun toza vositalarni tayyorlash		
Xonada sanitariya-gigiyena qoidalarini uzluksiz ta'minlash		
Tibbiy chiqindilarni xavfsiz va to'g'ri utilitatsiya qilishni amalda qo'llash		
Bilimlar:		
Tibbiyot muassasalarida sanitariya-gigiyena talablarining asosiy normalari		

		Tibbiy xonalarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladigan vositalar va ularning ishlatilish tartibi
		Tibbiy asbob va uskunalarni muolaja oldidan joylashtirish qoidalari
		Sarf materiallarini xavfsiz saqlash va tayyorlash standartlari
		Tibbiy chiqindilarni toifalarga ajratish va utilizatsiya qilish tartibi
		Bemor xavfsizligi uchun individual himoya vositalarini tayyorlash mezonlari
F10.02.5- Asboblar va sarf materiallarini ro'yxatga olish va tayyorlash		Mehnat harakatlari:
		1. Kundalik muolajalar jadvaliga muvofiq kerakli asboblarni aniqlash
		2. Sarf materiallari ro'yxatini tekshirish va mavjudligini baholash
		3. Yetishmayotgan materiallar haqida mas'ul shaxsga og'zaki yoki yozma xabar berish
		4. Asbob va materiallarni funksiyaga mos holda tartibga keltirish
		5. Har bir bemor uchun individual materiallar to'plamini tayyorlash
		6. Ro'yxat asosida foydalanilgan materiallarni hisobga olish
		Ko'nikmalar:
		Fizioterapiya muolajalariga mos asbob va materiallarni to'g'ri tanlash
		Sarf materiallarining miqdorini ro'yxat asosida aniqlash va solishtirish
		Yetishmayotgan materiallar bo'yicha rahbar shaxsga xabar berish
		Asbob va materiallarni muolaja xonasida tizimli va gigiyenik holatda joylashtirish
		Foydalanilgan materiallarni ro'yxatga olish va hisobini yuritish
		Bilimlar:
		Fizioterapiya muolajalarida qo'llaniladigan asbob va sarf materiallarining turlari
		Tibbiyot muassasasida materiallar hisobini yuritish tartibi va hujjat shakllari
		Asbob-uskunalar va materiallarni muolajalar bo'yicha toifalarga ajratish mezonlari
		Sarf materiallari yaroqlilik muddati va saqlash shartlari bo'yicha normativlar
	Gigiyena va infeksiyadan saqlanish bo'yicha asbob va materiallar tayyorlash qoidalari	
	Amaliyotda ro'yxat asosida nazorat va taqsimlash tamoyillari	

	F10.03.5- Dori vositalari va vositalarni yaroqlilik muddatini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Dori vositalari va tibbiy materiallar ro'yxatini tahlil qilish
		2. Mahsulot yorliqlaridagi yaroqlilik muddatini tekshirish
		3. Yaroqlilik muddati yaqinlashgan vositalarni ajratib olish
		4. Ishlatib bo'lmaydigan vositalar haqida tegishli shaxsga xabar berish
		5. Yaroqli dori vositalarini saqlash shartlariga rioya qilish
		6. Nazorat natijalarini ichki hujjatlarda qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Dori vositalari va tibbiy materiallar ro'yxatini tizimli yuritish
		Mahsulot yorliqlaridan yaroqlilik muddatini aniqlash
		Yaroqlilik muddati yaqinlashgan vositalarni ajratib belgilash
		Yaroqsiz dori vositalari bo'yicha axborot yetkazish tartibiga amal qilish
		Dori vositalarini mo'ljallangan shartlarda saqlashni ta'minlash
		Nazorat natijalarini hujjatlashtirish ko'nikmasini qo'llash
		Bilimlar:
		Dori vositalari va tibbiy materiallarning asosiy turlari va ulardan foydalanish sohasi
		Mahsulot yorliqlarida yaroqlilik muddatini aniqlash usullari
		Dori vositalarini saqlash uchun belgilangan sanitariya va texnik talablari
		Yaroqsiz dori vositalarini aniqlash, ajratish va utilizatsiya qilish tartibi
	Dori vositalari harakatini nazorat qilishga oid tibbiyot muassasasi ichki hujjatlari	
Farmakologik xavfsizlik va bemor sog'lig'i uchun xavf-xatarlarni oldini olish prinsiplari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Muolaja xonasining gigiyenik holati va ishga tayyorligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lish	
	2. Asbob-uskunalar va sarf materiallarining saqlanishi, hisobini yuritish va yaroqliligini nazorat qilish ishlarini mustaqil bajarish	
	3. Tegishli muassasa ichki qoidalari va sanitariya talablariga muvofiq holda ish faoliyatini tashkil qilish	
	4. Dori vositalari va materiallarning holati haqida rahbariyatga axborot yetkazish bo'yicha tashabbus ko'rsatish	

F11.5- Bemor bilan muloqot qilish va ma'lumot berish	F11.01.5- Bemorga muolajaning maqsadi va tartibini tushuntirish	Mehnat harakatlari:
		1. Muolajaning nomi va asosiy maqsadini aniqlash
		2. Muolajaning tanadagi ta'sir sohasini tushuntirish
		3. Muolaja jarayonida foydalaniladigan uskuna bilan tanishtirish
		4. Muolajaning davomiyligi va taxminiy natijalarini izohlash
		5. Bemorga mumkin bo'lgan noqulayliklar yoki cheklovlar haqida ma'lumot berish
		6. Bemorga muolaja tartibining bosqichlarini ketma-ket bayon qilish
		Ko'nikmalar:
		Muolajaning maqsadi va mohiyatini oddiy va tushunarli tilda izohlash
		Tibbiy uskunaning funksiyasini bemorga sodda tilda tushuntirish
		Muolaja davomiyligi va kutilyotgan natijalarni ifodalay olish
		Muloqot davomida bemorning savollariga sabr bilan javob bera olish
		Muolaja jarayonining tartibini bemorga ketma-ket tarzda tushuntirish
		Bilimlar:
	Har bir fizioterapevtik muolajaning maqsadi, mexanizmi va kutilyotgan terapevtik ta'siri	
	Fizioterapiya usullarida ishlatiladigan asbob-uskunalar va ularning asosiy funksiyalari	
	Fizioterapiya muolajalari davomiyligi, takrorlanish chastotasi va umumiy davolovchi kurs xususiyatlari	
	Bemorga ma'lumot berishda etik va kasbiy kommunikatsiya qoidalari	
	Nojo'ya ta'sirlar yoki bemorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar haqida ogohlantirish me'yorlari	
	F11.02.5- Rozilik olish va muolajani boshlashdan oldin ishonch hosil qilish	Mehnat harakatlari:
	1. Muolaja mazmuni va maqsadini bemorga qisqacha eslatib o'tish	
	2. Bemorga savollar berib, axborotni to'g'ri tushunganini aniqlash	
	3. Bemorning roziligini og'zaki yoki yozma shaklda so'rash	
	4. Bemorning javobini aniqlik bilan eshitish va tasdiqlash	
	5. Ehtimoliy xavf yoki noqulayliklar haqida ogohlantirish	
	6. Rozilik berilganidan keyin muolajaga tayyorgarlikni boshlash	
	Ko'nikmalar:	
	Muolajaning mazmunini bemorga qisqa, aniq va tushunarli tarzda tushuntirish	

		<p>Bemorning aytganlarini diqqat bilan tinglab, tushunganini tahlil qilish</p> <p>Rozilik olish jarayonida bemorning psixologik holatini hisobga olish</p> <p>Og'zaki va/yoki yozma rozilik shakllarini huquqiy jihatdan to'g'ri qo'llash</p> <p>Bemorni ogohlantirishda xotirjam, empatik va ishonchli ohangda muloqot qilish</p> <p>Rozilikdan keyingi harakatlarga o'tishda ishonch hosil qilish va muolajaga tayyorgarlikni boshlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Tibbiy muolajalar uchun og'zaki va yozma rozilik berishning huquqiy asoslari</p> <p>Fizioterapiya muolajalarining asosiy xavf omillari va nojo'ya ta'sirlari</p> <p>Bemor bilan etika va muloqot tamoyillari asosida axborot berish qoidalari</p> <p>Bemorning axborotni to'g'ri tushunganini baholash mezonlari</p> <p>Rozilik olishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan psixologik holatlar</p> <p>Kasbiy mas'uliyat va axloqiy me'yorlarga rioya etish talablari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Bemor bilan muloqot jarayonida axborotni to'g'ri, aniq va etika normalariga muvofiq yetkazish uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Bemorning roziligini olish va uning savollariga to'g'ri javob berish jarayonida mustaqillik</p> <p>3. Bemorning psixologik holatini hisobga olib, muolajani boshlashdan oldin ishonch hosil qilishda mustaqillik</p>
Texnik va/yoki texnologik talab		<p>Sanitariya va xavfsizlik qoidalari talablariga javob beradigan, quruq, yorug' va yaxshi shamollatiladigan (havo harorati 20-22°C), pol qoplamasi tok o'tkazmaydigan dielektrik materialdan qilingan maxsus xona, elektr xavfsizligini ta'minlovchi himoya yerga ulash tizimi, metall qismlari izolyatsiya qilingan yog'ochli tibbiy kushetkalar, bemor kiyinib-yechinishi uchun to'siq-shirmalar, fototerapiya uskunalari, nurlanishdan himoyalovchi maxsus ko'zoynaklar to'plami, biodozimetr, ultratovush terapiyasi apparatlari va turli o'lchamdagi nurlatgich kallaklari, kontakt muhit vositalari, past chastotali va o'zgarmas magnit maydon hosil qiluvchi apparatlar hamda turli shakldagi induktorlar, magnit maydon indikatorlari, issiqlik bilan davolash uchun "parafin oshxonasi" jihozlari, birinchi tibbiy yordam qutisi, o't o'chirish vositalari, chiqindilarni saralash uchun maxsus idishlar va dezinfeksiya vositalari.</p>

Kasbning nomi:	Massajchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	32550	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Jismoniy chidamlilik, qo'l kuchi, barmoqlar sezuvchanligi, toza va ozoda bo'lish, bemor bilan ruhiy aloqa o'rnatish qobiliyati, sabr-toqat.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Bolalar travmatolog-ortopedi
	7	Kattalar travmatolog-ortopedi
	7	Bolalar nevrologi
7	Kattalar nevrologi	
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
G1.5- Klassik va gigiyenik massaj turlarini bajarish	G1.01.5- Massaj oldidan qo'llarni antiseptik tozalash, isitish va bemor terisiga massaj moyi yoki talk surtish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Massaj oldidan qo'llarni tirsakkacha iliq suv va sovun bilan yuvib, antiseptik ishlov berish
		2. Terining tozaligini va yiringli toshmalar yo'qligini vizual tekshirish
		3. Bemor tanasiga teginishdan oldin kaftlarni bir-biriga ishqalab qizdirish
		4. Bemorning terisiga mos keluvchi massaj moyi, kremi yoki talkni tanlash
		5. Vositalarni avval o'z kaftiga surtib, keyin bemor tanasiga bir tekisda taqsimlash
		Ko'nikmalar:
		Qo'llarni tibbiy standart bo'yicha yuvish va dezinfeksiya qilish
		Kaftlarni qizdirish
		Massaj vositalarini tejamkorlik bilan va me'yorida ishlatish
		Teridagi patologik o'zgarishlarni sog'lom teridan vizual ajratish
Bemor bilan dastlabki jismoniy kontakti yumshoq va ishonchli boshlash		

		Bilimlar:
		Tibbiy massajda sanitariya-gigiyena qoidalari va qo'l parvarishi standartlari
		Massaj vositalarining turlari va ularning teriga so'rilish xususiyatlari
		Massajga mutlaq va vaqtincha qarshi ko'rsatmalar
		Bemor terisining turlari va allergik reaksiyalar belgilari
		Sovuq va mexanik ta'sirga terining fiziologik va reflektor javob reaksiyasi
		Mehnat harakatlari:
		1. Massajni yengil "silash" harakatlari bilan boshlash va terini tinchlantirish
		2. Terini va teri osti qavatini "ishqalash" usuli yordamida qizdirish
		3. Asosiy bosqichda mushaklarni chuqur "uqalash" texnikasini bajarish
		4. Jarayonni "vibratsiya" usullari va yakuniy silash bilan tugatish
		5. Har bir usulni bajarishda qo'l kuchini va ritmini bir maromda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Silash va ishqalash harakatlarini silliq, ritmik va uzluksiz bajarish
		Mushakni suyakdan ajratib, chuqur va og'riqsiz uqalash texnikasini qo'llash
		Qo'l va barmoqlar yordamida turli chastotadagi vibratsiyani hosil qilish
		Bemorning mushak qalinligi va og'riq sezgisiga qarab qo'l kuchi bosimini o'zgartirish
		Massaj vaqtida o'z tanasining ergonomik holatini saqlash va to'g'ri nafas olish
		Bilimlar:
		Klassik massajning 4 ta asosiy usuli va ularning tanaga fiziologik ta'siri
		Massaj usullarini bajarish ketma-ketligi va har bir bosqich uchun vaqt taqsimoti
		Mushak qavatlarini anatomiyasi va massaj harakatlarining yo'nalishi
		Turli usullarning qon aylanish tizimi va nerv tolalari o'tkazuvchanligiga ta'siri
		Ayrim massaj usullarini qo'llash mumkin bo'lmagan sohalar
		Mehnat harakatlari:
		1. Massaj harakatlarini periferiyadan markazga qarab yo'naltirish

	<p>G1.03.5- Umumiy gigiyenik massajni tananing barcha qismlarida limfa oqimi yo'nalishi bo'ylab o'tkazish</p>	<p>2. Limfa tugunlari joylashgan sohalarni bosmasdan aylanib o'tish</p> <p>3. Orqa, bo'yin, qo'l, oyoq va ko'krak qafasi massajini belgilangan sxema bo'yicha navbatma-navbat bajarish</p> <p>4. Massaj paytida bemorning tanasini ochish va yopish qoidalariga amal qilish</p> <p>5. Umumiy massaj davomiyligini (45-60 daqiqa) soat bo'yicha nazorat qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Anatomik limfa yo'llarini va mintaqaviy limfa tugunlarini aniq topish</p> <p>Bir sohadan ikkinchi sohaga o'tishda massaj uzluksizligini ta'minlash</p> <p>Bemor tanasini sochiq yoki choyshab bilan o'rash</p> <p>Massaj vaqtini tana qismlari o'rtasida to'g'ri taqsimlash</p> <p>Butun tana bo'ylab bir xil intensivlikda ishlash va charchoqni bildirmaslik</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Limfa tizimi anatomiyasi, limfa tomirlari yo'nalishi va limfa tugunlarining joylashuvi</p> <p>Limfa tugunlariga mexanik ta'sir qilishning xavfi va oqibatlari</p> <p>Umumiy gigiyenik massajni o'tkazish ketma-ketligi sxemasi va qoidalari</p> <p>Massaj etikasi</p> <p>Gigiyenik massajning organizmga umumiy profilaktik ta'siri va vaqt me'yorlari</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. Massaj paytida sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Bemorning terisi va mushaklarini jarohatlash yoki asossiz kuchli og'riq yetkazishning oldini olish bo'yicha mas'uliyat</p> <p>3. Massaj vositalarini bemorning teri turiga va allergik xususiyatiga qarab tanlashda mustaqillik</p> <p>4. Bemorning mushak holatiga va individual sezgisiga qarab massaj kuchi hamda tempini mustaqil boshqarish</p> <p>5. Terida shubhali toshmalar, yara yoki yallig'lanish aniqlanganda massajni boshlamaslikda mustaqillik</p>
<p>G2.5- Terapevtik massajni bajarish</p>	<p>G2.01.5- Shifokor tashxisi va yo'llanmasiga asosan massaj qilinadigan sohani aniqlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Tibbiy kartadan asosiy kasallik tashxisi va massaj qilinishi kerak bo'lgan aniq sohani aniqlashtirish</p> <p>2. Palpatsiya orqali mushaklardagi og'riqli tugunlar va spazm joylarini topish</p> <p>3. Shish, gematoma yoki o'tkir yallig'lanish bor joylarni aniqlab, u yerga kuch ishlatmaslik</p> <p>4. Massaj rejasini tuzib olish</p> <p>5. Bemorga muolaja davomida qanday hissiyotlar bo'lishi mumkinligini tushuntirish</p>

		Ko'nikmalar:
		Tashxisga mos keluvchi eng samarali massaj usulini tanlash
		Barmoqlar uchi bilan to'qima holatini nozik his qilish
		Og'riqli va og'riqsiz zonalarini paypaslab farqlash
		Shifokor bilan hamkorlikda ishlash va ko'rsatmalarni aniq bajarish
		Bemorning shikoyatlarini tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish
		Bilimlar:
		Patologiyaga qarab massaj zonalarini belgilash qoidalari
		Mushak gipertonusi va gipotonusining klinik belgilari
		Og'riqli nuqtalar va trigger zonalarining anatomik topografiyasi
		Yallig'lanish, shish va to'qima butunligi buzilishining tashqi belgilari
		Tibbiy atamalar, tashxislar va lotincha nomlanishlar
	G2.02.5- Gipertonus mushaklarni bo'shashtiruvchi yoki bo'shashgan mushaklarni kuchaytiruvchi usullarni qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Gipertonus mushaklarda tinchlantirish maqsadi uchun sekin sur'atda, bir maromda va to'xtalishsiz chuqur uqalash usullarini bajarish
		2. Gipertonus mushaklarni stimulyatsiya qilish uchun tez sur'atda, kuchli bosim va zarbali usullar yordamida massaj qilish
		3. Bemorning nafas chiqarish vaqtida mushaklar fiziologik bo'shashishidan foydalanib, bosim kuchini oshirish
		4. Asimmetrik patologiyalarda tananing bir tomonida bo'shashtiruvchi, ikkinchi tomonida kuchaytiruvchi usullarni qo'llash
		5. Muolaja davomida mushak konsistensiyasini paypaslab tekshirish va taktikani shunga moslash
		Ko'nikmalar:
		Massaj tempini daqiqasiga 30-60 harakat va 100-120 harakat oralig'ida boshqarish
		Zarbali usullarni bilakni bo'sh tutgan holda ritmik bajarish
		Mushakning tarang yoki bo'shashganligini barmoqlar sezgisi orqali aniqlash
		Massaj harakatlarini bemorning nafas ritmiga aniq moslash
		Bir seans davomida qo'l kuchi va harakat tezligini keskin o'zgartira olish
		Bilimlar:
		Sedativ massaj texnikasi parametrlari: sekin ritm, uzoq davomiylik

		Tonizatsiyalovchi massaj texnikasi parametrlari
		Mushak tonusi buzilishlarining klinik belgilari
		Nafas olish fazalarining mushak tonusiga ta'siri
		Skolioz va qomat buzilishida mushaklarning asimmetrik joylashuvi xususiyatlari
	G2.03.5- Tayanch-harakat tizimi kasalliklarida umurtqa pog'onasi atrofidagi mushaklarni chuqur uqalash	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning bel lordozi tekislanishi va mushaklar bo'shashishi uchun qorin ostiga yostiqla qo'yib yotqizish
		2. Umurtqa pog'onasining ikki yonidagi uzun mushaklarni barmoq falangalari yoki musht yordamida chuqur uqalash
		3. Umurtqa o'simtalariga tegmasdan, faqat mushak qavatini bosib ishlash
		4. Kurak osti va mushak ichidagi qattiqlashgan tugunlarni topib, nuqtali bosim bilan ezish
		5. Muolaja yakunida umurtqa pog'onasini bo'ylama yo'nalishda yengil cho'zish harakatlarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Suyak o'simtalarini mushak to'qimasidan paypaslab aniq ajratish
		Chuqur to'qimalarga ta'sir qilishda barmoq kuchi va o'z tana og'irligini to'g'ri muvozanatlash
		Mushak ichidagi mayda tugunlarni va qotishmalarni barmoq uchi bilan topish
		Bemorga qattiq og'riq yetkazmasdan maksimal chuqur bosim berish
		Umurtqani silkitmasdan va jarohatlamasdan xavfsiz cho'zish
		Bilimlar:
		Umurtqa pog'onasi anatomiyasi, umurtqalararo disklar va paravertebral mushaklar tuzilishi
		Osteoxondroz, skolioz va radikulit kasalliklarida mushaklardagi o'zgarishlar
		Miogeloz va trigger nuqtalarining hosil bo'lish joylari
		Umurtqa pog'onasi o'simtalariga to'g'ridan-to'g'ri bosim berishning xavfli oqibatlari
		Disk churrasi bo'lgan sohalarda massajga qo'yiladigan cheklovlar
		Mehnat harakatlari:
		1. Bo'g'im atrofidagi qotib qolgan to'qimalarni qizdirish uchun intensiv ishqalash va uqalash harakatlarini bajarish
	2. Bemorning bo'g'imini bir qo'l bilan fiksatsiya qilib, ikkinchi qo'l bilan harakatlanuvchi qismni ushlash	
	3. Bo'g'imda bukish, yozish va aylantirish harakatlarini bemorning ishtirokisiz bajarish	

	G2.04.5- Insult va jarohlardan keyingi reabilitatsiyada kontrakturalarni ochish uchun passiv harakatlar bilan massaj qilish	4. Harakat amplitudasini dastlabki kichik darajadan og'riq chegarasigacha asta-sekin kengaytirish
		5. Pay va boylamlarni cho'zish elementlarini qo'llash va bo'g'imni cho'zilgan holatda bir necha soniya ushlab turish
		Ko'nikmalar:
		Bo'g'imni to'g'ri va xavfsiz fiksatsiya qilish texnikasini qo'llash
		Passiv harakatlarni silliq, silkitmasdan va bo'g'im o'qi bo'ylab to'g'ri bajarish
		Harakat amplitudasini bemorning og'riq sezgisiga qarab millimetrlab oshirish
		Pay va mushaklarni jarohatlamasdan cho'zish kuchini his qilish
		Bemorning yuz ifodasiga qarab og'riq darajasini vizual nazorat qilish
		Bilimlar:
		Katta va kichik bo'g'imlarning anatomik tuzilishi va harakat o'qlari
		Bo'g'imlarning normal fiziologik harakat amplitudasi
		Kontraktura turlari va suyak bitishi davridagi cheklovlar
		Passiv gimnastika va cho'zish texnikasi qoidalari
		Insultdan keyingi spastik falajlikda bo'g'im bilan ishlash xususiyatlari
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Shifokor tomonidan qo'yilgan tashxis va ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilgan holda massaj zonasini belgilash uchun javobgarlik	
	2. Mushak tonusini to'g'ri baholash va shunga mos massaj usulini mustaqil tanlash	
	3. Chuqur to'qimalar bilan ishlashda suyak va ichki a'zolarni jarohatlamaslik uchun shaxsiy javobgarlik	
	4. Jarohatdan keyingi reabilitatsiyada passiv harakatlarni bajarishda bo'g'im amplitudasi chegarasidan chiqib ketmaslik va qayta jarohat yetkazmaslik	
	5. Bemorning og'riq chegarasini to'g'ri aniqlash va "massaj og'rig'i"ni me'yorda saqlash	
	6. Muolaja davomida bemorning umumiy ahvoli yomonlashsa, jarayonni mustaqil to'xtatish va shifokorga xabar berish	
G3.5- Maxsus massaj turlarini qo'llash	G3.01.5- Sportchilarda mashg'ulot oldidan va keyin sport massajini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Musobaqa yoki mashg'ulot oldidan mushaklarni tonusga keltirish uchun tezkor va kuchli "qizdiruvchi" massajni bajarish
		2. Jismoniy yuklamadan so'ng sut kislotasini chiqarish va charchoqni yozish uchun chuqur "tiklovchi" massajni o'tkazish
		3. Jarohatlangan sohalarda shish va og'riqni kamaytirish uchun ehtiyotkorona reabilitatsion massaj qilish

		4. Sportchining mushak hajmi va zichligiga mos keluvchi kuchli bosim va intensivlikni qo'llash
		5. Bo'g'imlar harakatchanligini oshirish uchun cho'zish va silkitish usullarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Yuqori intensivlik va katta kuch bilan uzoq vaqt massaj qilish
		Tezkor, ritmik va uzluksiz harakatlarni bajarish
		Sportchining psixologik holatini hisobga olib ishlash
		Chuqur to'qimalarni jarohatlamasdan ezish
		"Silkitish" usulini samarali bajarish
		Bilimlar:
		Sport fiziologiyasi va jismoniy yuklamaning mushaklarga ta'siri
		"Qizdiruvchi" va "Tiklovchi" massajning bajarilish texnikasi va farqlari
		Sport jarohatlari va ularda massajning o'rni
		Sut kislotasi almashinuvi
		Katta mushak guruhlari bilan ishlashda kuch taqsimoti
	G3.02.5- Segmentar- reflektor massaj usullarini qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Umurtqa pog'onasidan chiquvchi nerv ildizlariga mos keluvchi teri va to'qima sohalarini aniqlash
		2. Terida, teri osti yog' qavatida va biriktiruvchi to'qimada reflektor o'zgarishlarni paypaslab topish
		3. Segmentar massajning maxsus usullarini qo'llash
		4. Ta'sirni pastki segmentlardan yuqori segmentlarga qarab yo'naltirish
		5. Ichki a'zolar faoliyatiga reflektor ta'sir ko'rsatish uchun "maksimal nuqtalar"ga ishlov berish
		Ko'nikmalar:
		Anatomik mo'ljallar bo'yicha umurtqa segmentlarini (C1-C7, Th1-Th12, L1-L5) sanab topish
		Reflektor o'zgarishlarni barmoq uchi bilan aniqlash
		Maxsus segmentar usullarni texnik jihatdan to'g'ri bajarish
		Massaj kuchini segmentning sezgirligiga qarab dozalash
		Bemorning vegetativ reaksiyalarini kuzatish
		Bilimlar:
		Odam anatomiyasi va nerv tizimining segmentar tuzilishi
		Vissero-kutan (ichki a'zo-teri) va kuta-visseral (teri-ichki a'zo) reflekslar mexanizmi
		Segmentar massajning maxsus usullari texnikasi
		Chap va o'ng tomonlama ta'sirning yurak va o't pufagiga ta'siri
		Qarshi ko'rsatmalar
		Mehnat harakatlari:
	1. Anatomik mo'ljallar yordamida kerakli biologik faol nuqtani aniq topish	

G3.03.5- Biologik faol nuqtalarni topish va akupressura bajarish	2. Barmoq uchi bilan nuqtaga perpendikulyar bosim berish, aylantirish yoki titratish	
	3. Bosim kuchini bemorda "yoqimli og'riq", "uvishish" yoki "tok urish" hissiyoti paydo bo'lguncha ushlab turish	
	4. Tinchlantirish uchun nuqtani sekin va uzoq vaqt ezib turish	
	5. Tonusni oshirish uchun nuqtaga qisqa, kuchli va uzuk-yuluq bosim berish	
	Ko'nikmalar:	
	Nuqtalarni paypaslab aniq topish	
	Barmoq kuchi bilan barqaror va o'zgarmas bosim berish	
	Bosim vaqtini soniyalarda nazorat qilish	
	Bemorning reaksiyasiga qarab nuqta joylashuvini aniqlashtirish	
	Barmoqlar charchog'ini olish va bo'g'imlarni himoyalash mashqlarini bilish	
	Bilimlar:	
	Asosiy biologik faol nuqtalar va meridianlar topografiyasi	
	Akupressura usullari	
	Nuqtali massajga ko'rsatmalar	
	Homiladorlikda va o'tkir holatlarda nuqtali massajga qarshi ko'rsatmalar	
	Etika va deontologiya asoslari	
	G3.04.5- Go'daklar va kichik yoshdagi bolalarda yoshga xos yumshoq massaj texnikasini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Go'dak terisini qizartirmasdan va og'ritmasdan faqat yengil "silash" va "ishqalash" usullarini qo'llash
		2. Bolaning yoshiga mos keluvchi massaj va gimnastika kompleksini tanlash
3. Tug'ma reflekslarni chaqirish orqali bolani faol harakatlantirish		
4. Qorin sohasini soat mili yo'nalishi bo'yicha silash		
5. Qo'l va oyoq bo'g'imlarini ehtiyotkorlik bilan bukish va yozish mashqlarini bajarish		
Ko'nikmalar:		
Bolani to'g'ri va xavfsiz ushlab hamda ag'darish		
Bosim kuchini go'dakning nozik to'qimalariga moslab nozik boshqarish		
Passiv gimnastikani bo'g'imdan chiqish xavfsiz va og'riqsiz bajarish		
Bolani chalg'itish va tinchlantirish usullarini qo'llash		
Tug'ma reflekslarni to'g'ri tekshirish va faollashtirish		
Bilimlar:		
Go'dak anatomiyasi, terisi va suyak tizimining o'ziga xos nozikligi		
Bola rivojlanishining asosiy bosqichlari va fiziologik reflekslar muddatlari		

		Go'daklar massajining davomiyligi va xona harorati me'yorlari
		Kindik churrasi, diatez, teri toshmalari va tana harorati ko'tarilganda massajga qarshi ko'rsatmalar
		Bolaning yig'lashi va bezovtalanish sabablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Jismoniy yuklama darajasiga qarab massaj kuchini to'g'ri tanlash va musobaqa oldidan sportchini jarohatlab qo'yimaslik yoki mushakni haddan tashqari bo'shashtirib yubormaslik uchun shaxsiy javobgarlik
		2. Kichik yoshdagi bolalar massajida suyak va bo'g'imlarning o'ta nozikligini hisobga olish, bolani yig'latmaslik va noqulaylik tug'dirmaslik uchun to'liq javobgarlik
		3. Biologik faol nuqtalarni aniq topish va nerv tolalari o'tgan joylarda noto'g'ri bosim berib, nevrалgiya chaqirmaslik.
		4. Bolalar uchun uy sharoitida bajariladigan oddiy gimnastika va massaj elementlarini ota-onalarga mustaqil o'rgatish va tavsiyalar berish
		5. Homiladorlik davrida yoki o'tkir kasalliklarda stimulyatsiya qiluvchi nuqtalarga ta'sir qilmaslik uchun mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		Sanitariya va gigiyena normalariga to'liq javob beradigan, havo harorati doimiy 20-22°C darajada saqlanadigan, yorug' va yaxshi shamollatiladigan alohida xona, balandligi massajchining bo'yiga moslab sozlanadigan professional massaj stoli, tananing fiziologik holatini ta'minlash uchun turli o'lchamdagi silindrsimon yostiqlar va uchburchak tayanchlar, massajchi o'tirib ishlashi uchun g'ildirakli va aylanadigan maxsus stul, bemor kiyinishi uchun shirma, kiyim ilgich va ko'zgular, qo'llarni tirsakkacha yuvish imkonini beruvchi issiq va sovuq suvli rakovina, suyuq sovun, qog'oz sochiqlar va spirtli antiseptik vositalar, bemorlar uchun toza choyshablar va sochiqlar zaxirasi, turli xil massaj vositalari to'plami, bemorning holatini baholash uchun tonometr, fonendoskop va termometr, nuqtali massaj uchun maxsus tayoqchalar, shoshilinch holatlar uchun to'liq jihozlangan birinchi tibbiy yordam qutichasi, ishlatilgan choyshablarni yig'ish uchun maxsus qopli idish.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 23-yanvar 2026-yildagi 1-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0086-son xulosa, 24.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 13.02.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	13.02.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot haqida ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazirning birinchi o'rinbosari

Boboyev Alisher Shukrullayevich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i	Ismailov O'ktam Safayevich
2.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Azimov Aziz Muxamedjanovich
3.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri	Kamilov Xaydar Pazilovich
4.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Yakubov Erkin Amongeldiyevich
5.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti assistenti	Nazarova Nigina Otabek qizi
6.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Atakov Sarvar Sultanbayevich
7.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti	Nuritdinova Nigora Batirovna
8.	Toshkent farmatsevtika instituti o'qituvchisi	Sultanova Rano Khakimovna
9.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Xaydarova Ravshankhon Turg'unovna
10.	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi dotsenti	Rakhimov Azamat Ulugovich



**SOG‘LIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
TIBBIY REABILITATSIYA VA FIZIOTERAPIYA
MUOLAJALARINI BAJARUVCHILAR